



Sog'liqni saqlash
vazirligi




Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



Toshkent tibbiyot
akademiyasi Termiz
filiali

“TIBBIYOTNING DOLZARB
MUAMMOLARIGA
INNOVATSION
YONDASHUVLAR”



TALABALAR VA YOSH OLIMLAR
1-ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI (XALQARO
ISHTIROKI BILAN)

MATERIALLARI

2025

30-MAY

TERMIZ

“TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR”

TALABALAR VA YOSH OLIMLAR 1-ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI (XALQARO ISHTIROKI BILAN)

TAHRIRIYAT JAMOASI

BOSH MUHARRIR

F.A.OTAMURADOV

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI

Raxmanov Abduqahhor Abdusattorovich, Fayziyeva O'g'ilbibi
Ro'zibadalovna, Rasulova Xurshidaxon Abduboriyevna, Hojiyev Dilmurod
Yaxshiyevich

TAHRIRIYAT HAY'ATI A'ZOLARI

Iskandarova Dilnoza Ergashevna, Ulug'ov Abduraim Hamzayevich,
Iskandarova Dilnoza Ergashevna, Berdiyeva Zebo Uralovna, Mamatqulova
Nilufar Xusanovna, Saxnovskaya Elena Gennadevna, Xo'shboqov Panji
Shoymanovich, Axmedov Kamoliddin Hakimovich, Muzaffarova Nazokat
Sharabovna, Nurova Zamira Annakulovna, Babajanova Shoirra O'tkirovna,
Rasulov Shomurod Maxmudovich, Maxmaraimov Shavkat To'xtashovich,
Vaxidov Alisher Shavkatovich, Muhammadiyev Rahmon Omonovich,
Madiyev Rustam Zoirovich, Xurmatova Dilorom Adashevna, Bolg'ayev
Abdusodiq Bolg'ayevich, Salomov Murod Sunnatullayevich,
Shamsutdinova Maqsuda Ilyasovna, Xo'jaqulova Farida Ismoilovna,
Tog'ayev Axror To'raqulovich

**TIBBIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARIGA INNOVATSION
YONDASHUVLAR 2025**

**TALABALAR VA YOSH OLIMLAR 1-ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
(XALQARO ISHTIROKI BILAN)**

Hurmatli hamkasabalar, aziz talabalar va yosh olimlar!

Sizning qo‘lingizdagi ushbu tezislar to‘plami talabalar va yosh olimlarning xalqaro ishtirokdagi “Tibbiyotning dolzarb muammolariga innovatsion yondashuvlar” birinchi ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida tayyorlandi.

Konferensiyaning asosiy maqsadi — tibbiyot sohasida dolzarb ilmiy va amaliy masalalarni muhokama etish, ularga innovatsion yechimlar topish, shuningdek, yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirishdan iboratdir.

Mazkur anjuman va uning natijasi sifatida taqdim etilayotgan tezislar to‘plami tibbiyotning turli yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni yoritib berishi, yosh olimlar va talabalar uchun tajriba almashish maydoniga aylanishi, xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Barcha mualliflar va ishtirokchilarga ushbu ilmiy tadbirda faol ishtirok etganliklari uchun minnatdorlik bildiraman. Ishonchim komilki, sizlarning ilmiy izlanishlaringiz kelajakda tibbiyot fanining rivojlanishiga hamda sog‘liqni saqlash tizimi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

Barchangizga ilmiy faoliyatingizda yuksak muvaffaqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, tibbiyot fanlar doktori, dotsent Otamuradov Furqat Abdukarimovich

ИЗУЧЕНИЕ МЕХАНИЗМА АДФ-РИБОЗИЛИРОВАНИЯ АКТИНА ЙОТА-ТОКСИНОМ *CLOSTRIDIUM PERFRINGENS*

Ашурова Ш.О., студентка 3 курса
педиатрического факультета
Термезеский филиал Ташкентской Медицинской Академии
Научный руководитель: Нарзуллаева Г.К.,
ассистент кафедры медицинской биологии и генетики

Введение: Йота-токсин *Clostridium perfringens* - хорошо изученный бинарный токсин: А-субъединица является АДФ-рибозилтрансферазой, которая разрушает клеточный цитоскелет путём модификации R177 в молекуле Гактина, В-компонент отвечает за транслокацию А-субъединицы в клетку мишень.

Цель исследования: Структурно-функциональный анализ Ia был проведён несколькими научными группами, в то время как участие ключевых аминокислот актина в реакции его модификации изучено недостаточно.

Ранее на основе кристаллической структуры комплекса Ia-актин был предложен механизм АДФ-рибозилирования актина. Помимо участка модификации R177 важная роль придавалась аминокислоте D179, которая могла быть необходима для стабилизации промежуточного состояния реакции.

Материалы и методы: Однако *in vitro* или *in vivo* эксперименты, подтверждающие роль этой аминокислоты, проведены не были. Таким образом, цель нашей работы была изучить роль D179 молекулы актина в модификации субстрата йота-токсином *C.perfringens*. Первоначально мы получили штаммы дрожжей, где актин дикого типа был заменён на молекулы с заменами R177K, D179E. Все полученные штаммы демонстрировали сходный ростовой фенотип, что указывает на функциональность всех вариантов актина. Далее мы провели *in vitro* 32P-АДФ-рибозилирование дрожжевых лизатов с использованием рекомбинантного Ia. Уровни модификации актина дикого типа и вариантов с заменами D179 существенно не различались, в то время как реакции с актином R177K не наблюдались.

Результаты исследования: Использование очищенных препаратов показало сходный уровень кинетики реакции с актином дикого типа, актином-D179A и актином-D179E, в то время как актин-D179K модифицировался слабее. Последнее наблюдение могло быть связано с локальными структурными изменениями молекулы актина при замене отрицательно-заряженного аминокислотного остатка аспарагиновой кислоты

на положительнозаряженный лизин.

Вывод: Таким образом, эксперименты с дрожжевыми экстрактами и выделенным актином показывают, что аминокислотный остаток D179 не является ключевым при модификации актина и что предложенный ранее механизм АДФ-рибозилирования нуждается в уточнении.

BOLALARDA DIQQAT YETISHMOVCHILIGI VA GIPERAKTIVLIK SINDROMIDA UYQU BUZILISHLARINING XUSUSIYATLARI

Shoyzoqova Dildora Akbar qizi
Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti
Bolalar nevrologiyasi yo'nalishi 1-kurs magistri
Saidxodjayeva Saida Nabiyevena
Asab kasalliklari, bolalar asab kasalliklari
va tibbiy genetika kafedrasi dotsenti, t.f.d.

Kirish. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi (DYGS)-eng keng tarqalgan psixonevrologik buzilish hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha 3 % dan 7 % gacha bolalar bu patologiyadan aziyat chekadi. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi diqqatni jamlay olmaslik, giperaktivlik va impulsivlik simptomlari bilan tavsiflanadi. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi klinikasining muhim simptomlaridan biri bu-uyqu buzilishi bemorlarda uyquga ketishning qiyinligi, uyqu vaqtining qisqarishi ko'rinishida kuzatiladi.

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromida uyqu buzilishlarining klinik xususiyatlarini va neyrofiziologiyasini o'rganish.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti klinik bazasida 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 20 nafar har ikki jinsdagi diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi tashxisi qo'yilgan bolalarda olib borildi. Tadqiqot davomida bolalarning klinik-nevrologik statusi, uyquga ketish vaqti, uyqu davomiyligi va uyqu sifati o'rganildi.

Tadqiqot natijalari. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi bilan og'rikan bolalarning 75%ida turli shakldagi uyqu buzilishlari kuzatildi. Jumladan, 40% bolalarda uyquga ketishda qiyinchilik, 40%ida kechasi tez-tez uyg'onish va 20%ida uyqu davomiyligi qisqa ekanligi qayd etildi. Uyqu buzilishlarining og'irligi Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi simptomlarining zo'rayishiga, ayniqsa diqqat jamlashdagi muammolar va hissiy barqarorlikning buzilishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ekani aniqlandi.

Xulosa. Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi bilan og'rikan bolalarda uyqu buzilishlari keng tarqalgan bo'lib, sindromning umumiy og'irligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa bolalarning kognitiv faoliyatini, diqqatini va xulq-atvorini yanada og'irlashtiradi. Uyqu holatining tahlili ushbu bolalarda kompleks yondashuvni talab qiladi. Vaqtida tashxis qo'yish va tuzatish choralari simptomlarni yengillashtirishda muhim ahamiyatga ega

**BRONXIAL ASTMA KASALLIGINI DAVOLASHDA
OMALIZUMAB DORI VOSITASINI QO‘LLASHNING AFZALLIGI**

Adxamov Asror Adxam o‘g‘li
2-son davolash ishi fakulteti 401-guruh talabasi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. X.R. Xasanova

Mavzuning dolzarbligi: Bronxial astma – bu surunkali yallig‘lanish bilan kechuvchi, havo yo‘llarining torayishi va giperreaktivligi bilan xarakterlanadigan kasallikdir. Ayniqsa, allergik shakllarida immunologik mexanizmlar asosiy rol o‘ynaydi. Standart terapiya, jumladan inhalatsion kortikosteroidlar va beta-2 agonistlar ba’zida yetarli bo‘lmagan hollarda, yangi biologik davo usullariga ehtiyoj tug‘iladi.

Tadqiqot maqsadi: Omalizumab – bu rekombinant, insoniy monoklonal antitel bo‘lib, u IgE molekulalariga spesifik bog‘lanadi. Bu bog‘lanish natijasida erkin IgE darajasi kamayadi, Ssemiz hujayralar hamda bazofillarning IgE orqali faollashuvi to‘xtaydi. O‘z navbatida, allergik yallig‘lanish reaksiyalari susayadi va klinik belgilar kamayadi. 6 oy davomida bu preparat boshqa bronxolitiklar bilan birgalikda qabul qilindi.

Tadqiqot materiallari va usullari: Bronxial astma kasalligi bo‘lgan 40-60 yoshdagi 40 nafar bemor olindi, shundan 15 tasi erkak 25 tasi ayol. Bemorlarning barchasida sub’ektiv va ob’ektiv tekshiruvlar, laborator-instrumental (umumiy qon, umumiy siydik, qon biokimyoviy tahlili, IFA(IgE), Ekg, Pikflometriya, Spirometriya, Rentgen) tekshiruvlaridan o‘tkazildi. Tekshiruvlar natijasiga ko‘ra bemorlarda Bronxial Astmaning yengil(8ta bemor), o‘rta og‘ir(20ta bemor), og‘ir(12ta bemor) tashxisi qo‘yildi. Bemorlarga 6oy davomida ingalyatsion GKSlar, beta-2 uzoq ta’sir etuvchi agonistlar, leykotrien retseptor antogonistlari bilan birgalikda Omalizumab preparati 2 haftada bir marta teri ostiga vazn va IgE miqdorini tekshirib doza belgilanib inyeksiya qilindi. Preparat qabuli davomida bemorlarda hansirash, bo‘g‘ilish kabi simptomlar kamayib bordi.

Tadqiqot natijalari: Nazorat guruhidagi bemorlarning 12 tasida 6 kursda, 16 tasida 8 kursda, 8- tasida 10 kursda klinik belgilarning sezilarli pasaygani va bemorlarning ahvoli yaxshilangani kuzatildi. Qolgan 4 nafar bemorning klinik belgilari biroz pasaydi. Kursimiz davomida bemorlarning 95 foizida nojo‘ya ta’sirlar kuzatilmadi. Qolgan 5 foizida bir oz bosh og‘rig‘i va bosh aylanishi kabi holatlar kuzatildi. Omalizumab preparati 2 haftada bir marta teri ostiga vazn va IgE miqdorini tekshirib doza belgilandi va kurs davomiyligi asosan kasallik darajasiga

bog'liq bo'lib, bronxial astma kasalligini davolash davomida ob'ektiv va sub'ektiv belgilarni pasaytiradi, broxlarda havo o'tkazuvchanligini tiklab hansirashlarni bartaraf etadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda Omalizumab preparati qabul qilish yaxshi samara berib, bronxlardagi giperreaktivlik va gipersekretor jarayonlar yuqoldi, hansirash va bug'lish hurujlari yuqoldi, bemorlarda doriga ehtiyoj yuqolib, uyqu buzilishlari va tungi bezovtaliklar yuqoldi.

Неврологические осложнения сахарного диабета и частота встречаемости развития Деменции и Альцгеймера.

Абдижамиев Алпамыс Бахтиярович
Ургенчский филиал Ташкентской
Медицинской Академии.
Кафедра: Медицинская химия и биохимия.

Научный руководитель: Розимова Феруза Шоназаровна.

Актуальность: Сахарный диабет (СД) является одним из ключевых факторов риска развития нейродегенеративных заболеваний, включая деменцию и болезнь Альцгеймера. Хроническая гипергликемия, инсулинорезистентность и микрососудистые нарушения способствуют накоплению амилоидных бляшек и нейровоспалению, что ускоряет когнитивный спад. В условиях роста распространённости СД (по данным IDF, 10% взрослого населения мира к 2030 г.) изучение взаимосвязи диабета с деменцией становится критически важным для профилактики и ранней диагностики.

Цель исследования: Оценить частоту встречаемости деменции и болезни Альцгеймера у пациентов с сахарным диабетом, а также выявить патогенетические и клинические предикторы, влияющие на развитие этих осложнений.

Материалы и методы исследования: Ретроспективное когортное исследование 1200 пациентов с СД 1-го и 2-го типов (2015–2023 гг.).

- Диагностика деменции — MMSE (Mini-Mental State Examination) и MoCA (Montreal Cognitive Assessment).
- Диагностика болезни Альцгеймера — критерии NIA-AA (National Institute on Aging–Alzheimer’s Association).
- Анализ уровня HbA1c, длительности СД, сопутствующих патологий (гипертензия, дислипидемия).
- Статистический анализ: Многофакторная логистическая регрессия, ROC-анализ для оценки прогностической значимости параметров.

Результаты исследования: 1. Частота когнитивных нарушений:

- Деменция выявлена у 19% пациентов с СД 2-го типа против 7% при СД 1-го типа ($p < 0,01$).
- Болезнь Альцгеймера диагностирована у 11% пациентов с СД 2-го типа (в 2,5 раза выше, чем в контрольной группе без СД).

2. Факторы риска:

- HbA1c $> 7,5\%$ ассоциирован с повышением риска деменции в 2,8 раза (OR=2,8; 95% ДИ: 2,1–3,7).

- Инсулинорезистентность (НОМА-IR >3,0) увеличивает риск болезни Альцгеймера на 70% ($p<0,05$).

3. Сопутствующие условия:

- Артериальная гипертензия (65% случаев) и ожирение (ИМТ >30 кг/м², 40%) усиливают когнитивный спад ($p<0,05$).

Вывод:

1. Сахарный диабет, особенно 2-го типа, значительно повышает риск развития деменции и болезни Альцгеймера, что связано с хронической гипергликемией и инсулинорезистентностью.

2. Ключевыми предикторами нейродегенерации являются уровень HbA1c, длительность СД и сопутствующие метаболические нарушения.

3. Внедрение регулярного скрининга когнитивных функций у пациентов с СД и оптимизация гликемического контроля могут снизить частоту неврологических осложнений

**SURXONDARYO REGIONIDA BRONXIAL ASTMA KASALLIGI
BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING HAYOT SIFATINI
BAHOLASH**

**Xo'jamuratoav Mehribon Baxtiyor qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz fililali
Fundamental tibbiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi
Choriyeva Zulfiya Yusupovna
Anatomiya va klinik anatomiya assistenti**

Kirish. Bronxial astma (BA) – nafas yo'llarining surunkali yallig'lanishi va bronxlar giperreaktivligi bilan kechuvchi kasallik bo'lib, o'tkir tutqanoqli nafas siqishi xurujlari bilan xarakterlanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda dunyo bo'yicha 339 million kishi ushbu xastalikdan aziyat chekmoqda. Dunyo miqyosida aholi orasida astma kasalligi o'rtacha 5% hollarda uchraydi, bolalarda esa bu ko'rsatkich 10% atrofida qayd etilgan. Astma nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy muammo ham bo'lib, u bemorlarning hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bronxial astmaning ta'rifi va klinik xususiyatlari

Bronxial astma – nafas yo'llarining turli allergenlar yoki qo'zg'atuvchilarga nisbatan sezuvchanligi ortishi (giperreaktivligi) oqibatida bronxlarning qayta tiklanuvchi torayishi bilan kechadigan surunkali kasallikdir. Uning patogenezida asosan eozinofil va T-limfotsitlar kabi yallig'lanish hujayralari ishtirok etib, bronxlar shilliq qavatida surunkali yallig'lanish jarayonini keltirib chiqaradi. Klinik jihatdan astma quyidagi asosiy belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- **Tutqanoqli nafas qisilishi (hansirash)** – bemorlarda vaqti-vaqti bilan to'satdan nafas olishi qiyinlashib, hushyorlik holati buzilishi mumkin. Ko'pincha bunday xurujlar tunda yoki erta tongda kuzatiladi.
- **Quruq qo'qqisoy yo'tallar** – bronxlarning torayishi oqibatida qattiq yo'tal tutishi, ayniqsa jismoniy zo'riqish yoki allergenlar bilan kontakt paytida sodir bo'ladi.
- **Xirilrab nafas olish va ko'krakda siqilish hissi** – bemorlar ko'krak qafasida og'irlik, bosim sezib, nafas chiqarishda hushtak-simon xirilash paydo bo'lishini ta'riflaydilar. Ushbu simptomlar, ayniqsa, kechasi xuruj vaqtida yaqqol namoyon bo'ladi.

- **Obstruksiya qaytuvchanligi** – astma xurujlari odatda bronxlarni kengaytiruvchi dori inhalyatorlari ta’sirida qaytadi yoki yengillashadi. Davolovchi dorilar qabul qilinganda simptomlar to’liq yoki qisman nazoratga olinishi mumkin.

Astma tutqanog’ini keltirib chiqaruvchi omillar turlicha bo’lib, ularga chang va gulchang kabi **allergenlar**, hayvon juni, oziq-ovqat allergiyalari, **tamaki tutuni**, sovuq havo, jismoniy zo’riqish va respirator infeksiyalar kiradi. Kasallik kechishi og’irligi bemorning irsiy moyilligi va atrof-muhit omillariga ham bog’liq. Astmaning klinik kechishi yengil, o’rta og’ir va og’ir darajalarga bo’linadi; bunda xurujlar tez-tezligi, kechasi bezovta qilishi, nafas olish funksiyasining pasayish darajasi hisobga olinadi.

Astmani erta aniqlash va nazorat qilish muhim ahamiyatga ega – kasallik o’z vaqtida tashxis qilinib, bemor shifokor tavsiyalariga rioya etsa, astma xurujlari va asoratlarini samarali oldini olish mumkin. Aks holda, nazoratsiz astma bronxlarning qaytmas o’zgarishlari, nafas yetishmovchiligi va bemorning kundalik faoliyatining keskin cheklanishiga olib kelishi ehtimoli yuqori bo’ladi.

Surxondaryo viloyatida bronxial astma: epidemiologik holat

Surxondaryo viloyati O’zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo’lib, aholisi taxminan 2,74 million kishini tashkil etadi (2022 yil boshiga ko’ra). Respublika bo’yicha rasmiy statistik ma’lumotlarga nazar solinsa, aholi orasida **5 foizga yaqin** qismida bronxial astma mavjudligi ta’kidlanadi. Bu ko’rsatkich dunyo o’rtacha darajasiga mos keladi. Astma ayniqsa bolalar orasida eng ko’p uchraydigan surunkali kasallik hisoblanadi. Agar ushbu 5% ko’rsatkich Surxondaryo viloyati aholisi uchun ham qo’llansa, viloyatda taxminan **130–140 ming** nafar kishi astma bilan yashayotgani taxmin qilinadi.

Surxondaryo viloyatida astma bilan kasallanish darajasi haqidagi aniq mahalliy statistikalar ochiq manbalarda ko’p uchramaydi. Biroq, umumiy respublika va dunyo tendensiyasiga ko’ra, so’nggi yillarda astma kasallanishi oshish tendensiyasidadir. Ba’zi manbalarda oxirgi besh yil ichida nafas yo’llari kasallanishi, xususan astma va surunkali bronxit bilan kasallanish **2,5 barobarga** oshgani qayd etiladi. Iqlim o’zgarishlari va ekologik omillar bunda muhim rol o’ynashi mumkin – masalan, Orolbo’yi ekologik muammolari, chang-bo’ronlar va havoning ifloslanishi respublika janubida ham nafas olish a’zolari kasalliklarini ko’paytiruvchi omillardan hisoblanadi.

Viloyatda astma kasalligining yosh va jins bo’yicha tarqalishiga kelsak,

demografik xususiyatlar umumrespublika va global ko‘rsatkichlardan keskin farq qilmasligi kutiladi. **Bolalar** orasida astma ko‘proq uchrab, ayniqsa o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan yuqori tezlikda tashxislanadi. **Kattalar** orasida esa aksincha, ayollarda astma erkaklarga nisbatan ko‘proq kuzatiladi.

Surxondaryo viloyatida astma bilan kasallanish darajasiga ta’sir etuvchi yana bir omil – hududning ko‘p qismi qishloq joylardan iboratligi (aholining ~80% qishloq joylarda yashaydi. Qishloq hududlarda sanoat ifloslanishi nisbatan kam bo‘lsa-da, **chang va allergenlar** (masalan, uy changi, gullar changi) bilan kontakt yuqori bo‘lishi mumkin. Shuningdek, qishloq joylarda tibbiy yordamga o‘z vaqtida murojaat qilish darajasi pastroq bo‘lishi ehtimoli bor, bu esa astmaning kech tashxis qilinishiga olib kelishi mumkin. Respublika miqyosida astma kech tashxis qilinishi muammosi mavjud bo‘lib, tadqiqotlarga ko‘ra bemorlarning faqat ~16%ida astma diagnozi kasallik boshlanganidan keyingi dastlabki 6 oy ichida to‘g‘ri qo‘yilgan. Bu esa ko‘plab bemorlar oylab, ba’zan yillab to‘g‘ri davolanmasdan yurishini anglatadi.

Umuman, Surxondaryo viloyatida bronxial astma epidemiologik holati respublika ko‘rsatkichlariga uyg‘un tarzda shakllanmoqda. Kasallik bolalar va o‘smirlarda ko‘proq uchrab, ishlash yoshidagi aholida ham astma bilan og‘riganlar soni ortib bormoqda. Jinsiy nisbat esa yuqorida qayd etilganidek, bolalikda o‘g‘il bolalar “ustunligi”, kattalarda ayollar “ustunligi” tomon o‘zgaradi. Ushbu tendensiyalarni hisobga olib, astma bilan kasallangan bemorlarning hayot sifati masalasini o‘rganish muhimdir.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — **Surxondaryo viloyatida bronxial astma bilan kasallangan bemorlarning hayot sifatini tizimli tarzda baholash**, hayot sifatiga ta’sir etuvchi klinik, psixologik va ijtimoiy omillarni aniqlash hamda mavjud muammolar asosida amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqot **Surxondaryo viloyatining** shahar va qishloq hududlarida yashovchi **bronxial astma bilan tashxis qo‘yilgan bemorlar** ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda **2023–2024-yillar davomida** viloyat markaziy klinik shifoxonasi, shahar oilaviy poliklinikalari hamda qishloq vrachlik punktlariga murojaat qilgan **150 nafar** bemor qamrab olindi.

Tadqiqotga qo‘yilgan mezonlar:

- 18 yosh va undan katta bo‘lgan shaxslar;
- Klinik va funktsional jihatdan tasdiqlangan bronxial astma tashxisi;
- Bemorning so‘rovnomalarni mustaqil to‘ldira olish qobiliyati;
- Oxirgi 6 oy ichida astma xurujlari bilan murojaat qilganlar.

Tadqiqotda foydalanilgan metodlar:

1. **So‘rovnoma usuli:** Bemorlarning hayot sifatini aniqlash uchun JSST tomonidan tasdiqlangan **WHOQOL-BREF** (World Health Organization Quality of Life – BREF) so‘rovnomasidan foydalanildi. Ushbu anketada **26 ta savol** mavjud bo‘lib, hayot sifatining to‘rtta yo‘nalishi (jismoniy salomatlik, psixologik holat, ijtimoiy munosabatlar, atrof-muhit) bo‘yicha baholash amalga oshirildi.
2. **Kasallik nazoratini baholash:** Astma ustidan nazorat darajasini baholashda **ACT (Asthma Control Test)** testidan foydalanildi. ACT testi yordamida bemorlarning o‘tgan 4 hafta ichidagi simptomlari, xurujlar chastotasi, tungi belgilar va dori vositalariga ehtiyoji aniqlanib, har bir bemorga **0 dan 25 gacha** ball qo‘yildi.
3. **Tibbiy hujjatlarni tahlil qilish:** Bemorlarning ambulator kartalaridan astma davomiyligi, davo protokoli, hamroh kasalliklar, va xurujlar soni haqida ma’lumotlar olindi.
4. **Statistik tahlil:** Olingan ma’lumotlar **Microsoft Excel 2021** va **SPSS 26.0** dasturlari yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha qiymat, dispersiya, p-qiymat (χ^2 test) asosida **hayot sifati va simptomlar og‘irligi o‘rtasidagi bog‘liqlik** baholandi. $P < 0,05$ qiymati statistik ahamiyatli deb qabul qilindi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, Surxondaryo viloyatidagi bronxial astma bemorlarining hayot sifati **me‘yoriy ko‘rsatkichlardan past** ekani kuzatildi. Xususan, WHOQOL-BREF sohalari bo‘yicha eng past ball **jismoniy salomatlik** va **psixologik holat** komponentlarida qayd etildi. Bu shuni ko‘rsatadiki, astma bemorlarini eng ko‘p qiynayotgan jihatlar – ularning jismoniy imkoniyatlarining cheklanishi va kasallikka bog‘liq ruhiy-emotsional zo‘riqishdir. Ijtimoiy munosabatlar sohasi balli nisbatan yuqoriroq bo‘lsa-da, ayrim bemorlarda astma sabab do‘stlari yoki hamkasblari bilan muloqotdan chekinish, o‘zini yakkalash holatlari kuzatilgani anketadan ma’lum bo‘ldi. Atrof-muhit sohasi (bemorning uy-joy, moliyaviy ahvoli, tibbiy xizmatlardan qoniqishi kabi ko‘rsatkichlar) ballari esa turlicha bo‘lib, asosan bemorning yashash joyiga (shahar-qishloq) va iqtisodiy imkoniyatlariga bog‘liq ekani aniqlandi.

Analiz natijalariga ko‘ra, **astma nazorat darajasi past** bo‘lgan, xurujlari tez-tez takrorlanadigan bemorlarda hayot sifati ko‘rsatkichlari ancha yomon ekani tasdiqlandi. Masalan, o‘rtacha oyiga 3 martadan ko‘p astma xuruji bo‘layotgan bemorlarning WHOQOL-BREF ballari nazorat ostidagi (xurujlarsiz) bemorlarga nisbatan sezilarli pasaygan ($p < 0.05$). Bu holat astmani samarali davolash va nazorat qilish hayot sifatini oshirishning hal qiluvchi omili ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, hamroh surunkali kasalliklari (masalan, yurak yetishmovchiligi yoki diabet) bor astmatik bemorlarning hayot sifati ikki barobar yomonlashgani kuzatildi – bu ikki va undan ortiq surunkali kasalliklarning birgalikda bemorga bosim yuklashi natijasidir.

Xulosa o‘rnida, Surxondaryo viloyati misolida bronxial astma bemorlarining hayot sifati past darajada ekani va bu ko‘rsatkich ko‘plab omillarga bog‘liqligi aniqlanmoqda. Astma xurujlarining tez-tezligi, kasallikning og‘irlik darajasi, bemorlarning psixologik holati va davolanish imkoniyatlari hayot sifati indikatorlarini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, astma bilan kurashishda faqat farmakoterapiya (dori-darmon) ga tayanib qolmasdan, bemorlarning **turmush sifatini** yuksaltirishga qaratilgan kompleks choralarni ko‘rish zarur.

Takliflar:

- **Astma nazoratini yaxshilash:** Bemorlarni muntazam ravishda kuzatib borish, individual davolash rejalarini tuzish va inhalyatorlardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish lozim. Astma markazlari va “astma maktablari” faoliyatini Surxondaryo viloyatida ham yo‘lga qo‘yish, har bir astma bemorini shu dasturlarga jalb etish tavsiya etiladi. Bu bemorlarga o‘z kasalligini yaxshiroq tushunish va boshqarish ko‘nikmasini beradi.
- **Dori vositalari va muolajalar bilan ta‘minot:** Davlat sog‘liqni saqlash tizimi tomonidan astma bemorlarini muolaja qilish uchun zarur bo‘lgan inhalyator, bronxolitik va yallig‘lanishga qarshi dori vositalarini chegirmali yoki bepul berish tizimini kengaytirish zarur. Xususan, qishloq joylarda yashovchi bemorlar yaqinidagi qishloq poliklinikalari va dorixonalarida astma dorilarining doimiy mavjudligini ta‘minlash kerak. Shuningdek, Surxondaryoning tog‘li hududlarida joylashgan “*Xo‘jaikon*” kabi tuz g‘orlari bazasida speleoterapiya (tuzli g‘or klimati bilan davolash) markazlarini rivojlantirish ham bemorlar uchun foydali bo‘lishi mumkin – bunday muolajalar astma simptomlarini yengillashtirishda yordam beradi.

- **Psixologik qo‘llab-quvvatlash:** Astma bilan yashovchi bemorlar va ularning oilalariga psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmati ko‘rsatish lozim. Bunda professional psixologlar yordamida bemorlarga stressni boshqarish, astma bilan hayot kechirish ko‘nikmalarini singdirish maqsadga muvofiq. Qo‘llab-quvvatlovchi astmatiklar guruhlarini (support groups) tashkil etish ham bemorlarning o‘zaro tajriba almashishi, yolg‘iz emasligini his qilishi va ruhiy dalda olishi uchun ijobiy samara beradi.
- **Profilaktik chora-tadbirlar:** Astma xurujlarini kamaytirish uchun atrof-muhit omillarini yaxshilash zarur. Xususan, uy va ish joylarida allergenlar (chang, mog‘or, hayvon junlari)ni kamaytirish choralari (muntazam tozalash, ventilyatsiya) targ‘ib qilish lozim. Chekishni tashlashga undash va chekmaydiganlar huquqlarini himoya qilish (jamoat joylarida chekishni taqiqlash) astma profilaktikasiga xizmat qiladi. Surxondaryo viloyatida chang ko‘p ko‘tariladigan mavsumlarda niqob taqish, uylarni namlatib supurish kabi tavsiyalar berilishi mumkin. Bundan tashqari, bolalarda astma rivojlanishini oldini olish maqsadida oilaviy poliklinikalarda allergiya va astma bo‘yicha erta skrining tekshiruvlarini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi.
- **Davlat dasturlari doirasida qo‘llab-quvvatlash:** Mamlakat miqyosida astma va boshqa surunkali nafas yo‘llari kasalliklariga qarshi kurash strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning ijrosini hududlarda ta‘minlash muhim. Jumladan, 2023–2025 yillarga mo‘ljallangan sog‘liqni saqlash Dasturida astma bilan kasallangan bemorlar orasida **xurujlar chastotasini kamaytirish** asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur Dasturga muvofiq, astma xurujlari sonini qisqartirgan (kasallikni nazorat qila olgan) bemorlar ulushini 2025 yilga borib 15% ga yetkazish ko‘zda tutilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun Surxondaryo viloyatida ham astma menejmenti bo‘yicha ko‘rsatmalarni bajargan, o‘zini nazorat qilayotgan bemorlarni rag‘batlantirish, davolash standartariga rioya etilishini monitoring qilish lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bronxial astma bilan kasallangan bemorlarning hayot sifati masalasi ular oladigan davolash sifati qadar muhimdir. Surxondaryo viloyati misolida astma bemorlarining hayot sifatini oshirish bo‘yicha kompleks yondashuv zarurligi ko‘rinib turibdi. Kasallikni erta aniqlash, zamonaviy davolash usullaridan foydalanish, bemorlarga psixologik va ijtimoiy ko‘mak berish orqali ularning hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Astma xurujlari nazorat ostiga olinganda bemor nafaqat nafas oladi, balki **to‘laqonli hayot kechirish imkoniga ega bo‘ladi** – bu esa sog‘liqni saqlash tizimi uchun eng asosiy maqsadlardan biridir. Hayot sifati yuqori bo‘lgan astma bemori jamiyatning faol a‘zosi aylanishi,

mehnat qobiliyatini saqlashi va oilasida baxtli hayot kechirishi mumkin. Shunday ekan, **“Sog‘lom turmush – sog‘lom nafas”** tamoyili ostida astmaga chalingan bemorlarning hayot sifati doimiy e‘tiborda bo‘lishi, ilmiy tadqiqotlar va amaliy chora-tadbirlar yordamida doimiy ravishda yaxshilab borilishi lozim.

LITHOTRIPSY

MAINA ANIL NAIK

**Samarkand state medical university,
Samarkand, Uzbekistan,**

**Scientific supervisor: Dr. Boboqulo Azamat, Assistant of The Department of
General Surgery, Republican Hospital, Samarkand State Medical University,
Samarkand, Uzbekistan**

Purpose of work: The purpose of this study is to evaluate the effectiveness, safety, and clinical outcomes of extracorporeal shock wave lithotripsy (ESWL) in the treatment of renal and upper ureteric calculi. Kidney stones are a common urological condition, and non-invasive management options have become increasingly important. ESWL uses focused acoustic pulses to fragment stones, allowing natural passage through the urinary tract. This work aims to assess the stone clearance rate, number of sessions required, and incidence of complications. Additionally, it evaluates factors influencing treatment success such as stone size, location, and composition. The findings are intended to guide optimal patient selection for ESWL and to compare its efficiency to other modalities such as ureteroscopy and percutaneous nephrolithotomy

Materials and Methods: This prospective study involved 60 patients diagnosed with renal or upper ureteric stones, treated with ESWL between January and December 2024. Patients included had solitary stones measuring 5–20 mm confirmed by ultrasonography or non-contrast CT scan. Exclusion criteria included pregnancy, bleeding disorders, severe obesity, and distal ureteric stones. Lithotripsy was performed using a third-generation electromagnetic shock wave lithotripter. Patients underwent 1–3 sessions depending on stone size and fragmentation response. A maximum of 3,000 shocks per session were delivered, with energy levels gradually increased. Analgesia was given as required. Follow-up imaging was done at 2 weeks and 1 month post-treatment to assess stone clearance. Successful outcome was defined as complete stone-free status or residual fragments <4 mm. Complications such as hematuria, flank pain, steinstrasse, and urinary tract infections were recorded. Data were analyzed using SPSS software, and statistical significance was set at $p < 0.05$

Results: Out of 60 patients treated with ESWL, complete stone clearance was achieved in 78.3% after a single session, while 16.7% required a second session, and 5% needed three sessions. The overall stone-free rate at one-month follow-up was 93.3%. Higher success was observed for stones <10 mm and in renal pelvis

location. Common minor complications included transient hematuria (25%), mild flank pain (20%), and steinstrasse (8.3%). Two patients developed urinary tract infections requiring antibiotics. No major complications or hospital admissions occurred. The procedure was well tolerated by most patients. The results confirm that ESWL is effective, especially for smaller stones, and presents a non-invasive alternative to more invasive stone removal techniques.

Conclusion: Extracorporeal shock wave lithotripsy (ESWL) is a safe, effective, and well-tolerated treatment for renal and upper ureteric calculi, particularly for stones under 15 mm in diameter. It offers a non-invasive approach with high stone clearance rates and minimal complications. The procedure is associated with short recovery time, low morbidity, and can often be performed on an outpatient basis. While certain factors such as stone size and location influence success, ESWL remains a preferred initial treatment for appropriately selected patients. This study supports its continued use as a first-line therapy, especially when aiming to minimize the need for anesthesia, hospitalization, or more invasive surgical interventions.

**IMPACT OF INCREASED NOISE LEVELS AT PUBLIC EVENTS IN
KHOREZM REGION ON POPULATION HEALTH**

Abdullayev R. B.

**Urgench branch of Tashkent medical academy
Department of Internal Medicine, rehabilitation and folk Medicine**

Mansurbekov D. M.

**Urgench branch of Tashkent medical academy
Department of Internal Medicine, rehabilitation and folk Medicine**

Bakhtiyarova A. M.

**Urgench branch of Tashkent medical academy
Department of Internal Medicine, rehabilitation and folk Medicine**

In recent years, the growing frequency of mass public events using powerful sound systems, particularly at weddings and celebrations in the Khorezm region, has raised public health concerns. Urbanization and the widespread use of amplified music contribute to increased environmental noise levels. According to the World Health Organization, prolonged exposure to noise levels exceeding 60 dB adversely affects the central nervous system, cardiovascular function, and immune regulation. These effects may contribute to the development of stress-related disorders and a decline in overall quality of life. Therefore, understanding the health implications of noise pollution in public gatherings is of great relevance.

The aim of this study was to assess the impact of elevated sound pressure levels on the physiological and psycho-emotional parameters of individuals frequently exposed to noisy environments, and to compare them with individuals in acoustically safe conditions.

The study included 60 volunteers aged between 20 and 40 years, divided into two equal groups. Group 1 (control) included 30 individuals who regularly attended events with noise levels not exceeding 55 dB. Group 2 (experimental) included 30 individuals who were present for at least one hour at events where the noise level exceeded 65 dB. Data collection methods involved questionnaires assessing headache, irritability, and sleep disturbances; measurements of blood pressure and heart rate before and after exposure; audiometric evaluation of hearing thresholds; and serum cortisol level determination.

The results showed that participants in the experimental group had a 35% average

increase in cortisol levels ($p < 0.05$), with 63% reporting sleep disturbances and 47% experiencing tinnitus. Temporary increases in blood pressure (by 10–15 mmHg) were observed in 53% of participants. Increased irritability and reduced concentration were reported by 70% of individuals. These changes were significantly more pronounced than those observed in the control group, where such complaints were minimal or statistically insignificant.

The findings indicate that exposure to noise levels above 60 dB during public events has a significant negative effect on human psychophysiological health. There is an increased risk of stress-induced disorders, decreased mental performance, and reduced quality of life. It is essential to implement sanitary regulations for noise control, promote the use of sound level monitoring devices in public spaces, and apply administrative measures in cases of excessive noise exposure.

ANTIOKSIDANT XUSUSIYATLARINING INSON SALOMATLIGIDAGI ROLI

Absamatova Dilnura Baxodir qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
pediatriya fakulteti 121-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Tibbiy va biologik kimyo kafedrası

Ilmiy rahbar: (PhD) ass. Rayimqulova Charos Axmatovna

Ishning maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tabiiy va sintetik antioksidant moddalarning inson organizmidagi erkin radikallar ta'sirini neytrallashtirishdagi rolini o'rganish hamda ularning turli kasalliklarni oldini olish va sog'lom hayot tarzini ta'minlashdagi ahamiyatini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari: Atrof-muhitning ifloslanishi, radiatsiya va chekish natijasida hosil bo'lgan yoki ishlab chiqarilgan erkin radikallar beqaror molekulalardir. Ular DNK, oqsillar va lipidlar bilan o'zaro ta'sir qilish orqali oksidlovchi stressni yaratishi mumkin. Bu qarish va yurak-qon tomir kasalliklari, saraton turi yoki tanangizning himoya kuchlari va erkin radikallarning nomutanosibligi tufayli neyrodegenerativ sharoitlar bo'lishi mumkin bo'lgan kattaroq va surunkali muammoni ko'rsatadi. Antioksidantlar turli sabablarga ko'ra hujayra jarayonlaridan ortiqcha hosil bo'lgan erkin radikallarni zararsizlantiradi, oksidlovchi stressni kamaytiradi va hujayralarni himoya qiladi. Antioksidant faollikni baholashda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri bu DPPH (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil) tahlili bo'lib, u antioksidantlarning barqaror erkin radikallarni neytrallashtirish qobiliyatini o'lchaydi. Rang o'zgarishi darajasi spektrofotometr orqali aniqlanadi va bu antioksidant konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ABTS tahlili ham keng qo'llaniladi. Bu usulda ko'k-yashil rangli ABTS.+ radikal kationi hosil qilinadi va antioksidantlar ishtirokida u kamayadi. Har ikkala usul oziq-ovqat va biologik namunalarda tarkibidagi antioksidantlarni tez va samarali baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari: Antioksidantlar tanadagi erkin radikallarning haddan tashqari ko'pligi natijasida kelib chiqadigan oksidlovchi stressni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Turli surunkali kasalliklar, jumladan, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, o'ziga xos saraton va neyrodegenerativ kasalliklar oksidlovchi stress bilan bog'liq. Antioksidantlar hujayralarni DNK, oqsillar va lipidlarni o'z ichiga olgan zararlardan himoya qiladi, erkin radikallarni yo'q qiladi va keksalikka qadar salomatlik va barqarorlikni rag'batlantiradi. Antioksidantlarga boy dietalar surunkali

kasalliklar bilan salbiy bog'liqligi aniqlangan. Masalan, choy, sabzavot va mevalardagi polifenollardan yurakning yallig'lanishi va shikastlanishi ko'rsatilgan. Ko'p tadqiqotlar natijasida olingan bu ma'lumot quyuc shokolad va rezavorlar kabi yuqori antioksidant mahsulotlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bargli ko'katlarni muntazam iste'mol qilish LDL xolesterin oksidlanishini kamaytirish orqali yurak sog'lig'ini yaxshilashga yordam beradi. Antioksidantlar bo'yicha turli tadqiqotlarga ko'ra, A va E vitaminlari, selen bilan bir qatorda, immunitetga ijobiy ta'sir qiladi. Sovuqqonlik asosan, vitamin C muntazamlilik kuchini va davomiyligini kamaytirish bilan bog'liq bo'lsa, E vitamini terini ultrabinafsha nurlari ta'siridan kelib chiqadigan zararlardan himoya qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy davrda, bioavailability optimallashtirish tufayli qo'shimchalar samarali bo'ldi, bu organizmdagi muayyan hujayralardagi ma'lum yo'llarning maqsadli yo'nalishini kuchaytirdi.

Xulosa: Antioksidantlar inson organizmida erkin radikallarning zararli ta'sirini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ular hujayra tuzilmasini himoya qiladi, qarish jarayonini sekinlashtiradi hamda yurak-qon tomir, saraton va boshqa surunkali kasalliklarning oldini olishda foydalidir. Shuning uchun antioksidant moddalarga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

**PERIFERIK O’PKA SARATONI (PENKOST)DA OG’RIQ
SINDROMI.**

*Amirqulova Mashhura Bobomurod qizi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi, Toshkent, O’zbekiston.
Ilmiy rahbar: Tibbiyot fanlari nomzodi, PhD dotsent Norbekova Munira
Hamraqulovna*

Kirish. Penkost saratoni o’pkaning yuqori qismida rivojlanadigan va o’smaning yelka chigaliga o’sib o’tishi natijasida bemorlarda yuzaga keladigan;

Orqa va elka sohasidagi og’riqlar

Mushaklar atrofiyasi

Harakat cheklanishi

Gorner uchligi (ptoza, mioz, endoftalm)

Qaytuvchi nervni zararlashi natijasida ovozning pasayishi yoki yo’qolishi kabi simptom va sindromlar bilan namoyon bo’ladigan xavfli o’sma hisoblanadi. Bu turdagi saraton boshqa o’pka saratonlaridan farqli ravishda, birinchi navbatda og’riq sindromi bilan boshlanadi, va bu og’riq sezilarli darajada bemorning hayot sifatini pasaytiradi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqot maqsadi penkost saratoni bilan og’riq bemorlarda og’riq sindromining klinik ko’rinishlarini, patofiziologik xususiyatlarini o’rganish va ularning davolashdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda penkost saratoni tashxisi qo’yilgan 30 nafar bemor ma’lumotlari tahlil qilindi. Bemorlarning 12 nafari ayol, 18 nafari esa erkak bo’lib, yoshi 40 yoshdan 70 yoshgacha edi. Tadqiqot uchun to’plangan ma’lumotlar og’riqning kuchi, davomiyligi, lokalizatsiyasi va tarqalishi kabi ko’rsatkichlarni o’z ichiga oldi. Og’riq darajasi VAS (Visual Analog Scale) yordamida baholandi. Periferik o’pka saratoni bilan bog’liq odatiy VAS natijalari:

- Erta bosqichda: Ko’pincha og’riq bo’lmaydi yoki 1-3 ball (yengil og’riq) 5% bemorda kuzatildi.

- O’rta bosqichda: Plevraga yoki nervlarga bosim bo’lsa, og’riq 4-6 ball (o’rtacha og’riq) darajasiga 20-30% bemorlarda to’g’ri keldi.

- Kech bosqichda: O’sma plevra, qovurg’a yoki umurtqaga tarqalganda 7–10 ball (kuchli og’riq) 65-75% bemorlarda qayd etildi.

Natija. Periferik o’pka saratonining prognozi kasallikning bosqichi va har bir bemorning umumiy holatiga bog’liq. Tadqiqot davomida olgan 30 ta bemorlarning deyarli hammasi IV-bosqichlarda aniqlangan va davo muolajalarni asosan

simptomlarni yengillashtirish maqsadida hamda bemorlarning hayot faoliyatini ma'lum bir miqdorda yaxshilashga qaratildi. Daslabki bosqichlarda aniqlangan periferik o'pka saratonini davolashda jarrohlik usuli tanlandi va bemorning to'liq sog'ayish ehtimoli 60-70% ga oshdi. O'rta bosqichlarda aniqlangan bemorlarga kimyo va radioterapiya bilan birgalikda kompleks davolsh qo'llanildi va kompleks davolash natijasida o'smaning hajmini kamaytirish va simptomlarini yengillashtirishga erishildi.

Xulosa. Penkost saratoni bilan og'rigan bemorlarda og'riq sindromining klinik ko'rinishi turli ko'rinishda bo'lishi mumkin va bu simptom bemorlarning hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Og'riq sindromining aniq diagnostikasi va to'g'ri davolash usullarini tanlash bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Penkost saratoni bo'yicha tezkor tashxis qo'yish og'riqni yengillashtirishda va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Maksimal og'riqni kamaytirish uchun dori-darmonlar bilan birgalikda reabilitatsiya dasturlarini ham qo'llash tavsiya etiladi.

ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ БУККАЛЬНОГО ЭПИТЕЛИЯ НА ФОНЕ ТАБАКОКУРЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПЕДИАТРИЧЕСКОГО ФАКУЛЬТЕТА

*Салихова М. С., Неъматиллаева С. Х.
Термезский филиал Ташкентской медицинской академии
Кафедра медицинской биологии и гистологии
Научный руководитель: доцент, к.б.н. Ашуров А.Т.*

Ведение: В настоящее время табакокурение – серьёзная проблема человечества, в том числе среди студентов медицинского вуза. Проблема влияния табакокурения на организм человека, его умственные способности и последствия актуальна до сих пор. Наиболее опасным осложнением курения является рак полости рта.

Цель исследования: Изучить цитологические изменения БЭ при табакокурении у студентов лечебного факультета.

Материалы и методы: Исследование включало следующие этапы: анкетирование и микроскопирование клеток БЭ у курящих и некурящих студентов лечебного факультета.

1. Знаете ли вы, что курение влияет на здоровье человека? Как? На какие органы влияет табачный дым?

2. Курите ли Вы?

3. Нравится ли вам курить? (Для тех кто ответил утвердительно на вопрос 2).

4. Хотите ли Вы получать дополнительную информацию о влиянии курения на организм человека?

8. Курят ли те, кто постоянно Вас окружает (одногруппники, соседи по общежитию)

В исследовании участвовало 50 студентов 1-3 курса мужского пола зрелого возраста (18-25 лет) без соматических и психических патологий. Студенты разделены на 2 группы: первая группа состояла из 25 обучающихся, которые выкуривают 5-7 сигарет в сутки со стажем курения 2-3 года, а во вторую – 25 студентов, без вредных привычек, в том числе, и курения (контрольная группа).

Для изучения клеток БЭ с помощью специального шпателя со слизистой оболочки поверхности щеки проводили забор материала в одно и то же время суток. Изготавливали нативные препараты. Для их окраски применяли гематоксилин-эозин. Объекты изучали с помощью микроскопа OLYMPUS CX21, фотографировали и получали изображения (Motic Images Plus 2.0).

Результаты исследования: Опрос студентов показал, что 65% респондентов

знают о том, как влияет курение на организм человека, но только 35% из них могут сказать, как и на какие органы. 75% опрошиваемых хотят получить дополнительную информацию о влиянии курения на организм человека.

При распределении курящих в зависимости от возрастной группы, оказалось, что максимальный % курильщиков на 3 курсе.

На следующем этапе проведено сравнение эпителиоцитов курящих студентов с некурящими. Сбор буккальных клеток представляет собой простой, безболезненный и наименее инвазивный метод. Микроскопические изменения, которые возникают ранее в слизистой оболочке щеки, включают микроядра и другие ядерные аномалии, такие как кариорексис, кариолизис, пикноз, двуядерность, конденсированные ядра, гиперхроматизм, заметные ядрышки, сломанные ядра яйцеклеток, ядерно-цитоплазматическое соотношение и неправильные границы ядер.

Результаты исследования показали, что клетки у лиц контрольной группы лежат отдельно друг от друга, цитоплазма окрасилась в розовый цвет. Эпителиоциты поверхностного слоя полигональной формы с мелкими ядрами. Эпителиоциты шиповатого слоя крупные, полигональной формы, ядро овальной формы. Роговые чешуйки встречаются редко. Клеток базального слоя почти не выявлено.

При изучении мазка с внутренней поверхности щеки у курящих студентов, выявлены группы БЭ в поле зрения мазка, с наложением друг на друга. Часто лейкоциты занимают большую часть поля зрения мазка, по сравнению с контролем они присутствуют в существенно большем количестве.

Также во второй группе студентов в исследуемом материале присутствуют клетки БЭ с протрузией ядра типа «язык» и «разбитое яйцо». Нередко в мазке встречаются микроядра и клеточный диморфизм.

В клетках промежуточного слоя наблюдается два ядра, часто встречается насечки. Результаты многих авторов показывают, что БЭ может подвергаться функциональным изменениям при нарушении внутреннего состояния организма из-за того, что он обладает чувствительностью к многим воздействиям экзогенного и эндогенного характера. Микроядра и другие ядерные аномалии чаще встречаются у курильщиков.

Выводы: В эпителиоцитах курящих студентов по сравнению с контрольной группой, выявлено появление групп клеток, микроядер, протрузий ядер типа «язык» и «разбитое яйцо», увеличение количества лейкоцитов в мазке, ядер с насечкой. Можно предположить, что появление изменений в буккальном эпителии у курящих студентов, по сравнению с контрольной группой, может свидетельствовать о воспалительном процессе в слизистой оболочке ротовой полости.

**СТРУКТУРА МАТЕРИНСКОЙ СМЕРТНОСТИ В КЫРГЫЗСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ
В ПЕРИОД ПАНДЕМИИ КОВИД-19**

**Таалайбекова А.Т.¹, Жолдошбекова Г.Ж.²
Студент лечебного факультета №2 Кыргызской государственной
медицинской академии имени И.К.Ахунбаева¹,
Ассистент кафедры акушерства и гинекологии №2 Кыргызской
государственной медицинской академии имени И.К.Ахунбаева²,
Кафедра акушерства и гинекологии №2 Кыргызской
государственной медицинской академии имени И.К.Ахунбаева
Научный руководитель – кандидат медицинских наук,
доцент Стакеева Ч.А.**

Введение. Появление вируса SARS-CoV-2 вызвало немедленные опасения по поводу воздействия инфекции на беременную женщину. За период пандемии в Кыргызской Республике был достигнут значительный прогресс в снижении влияния Ковид-19 на заболеваемость и общую смертность. Однако данные по воздействию вируса на материнские исходы все еще остаются противоречивыми.

Цель исследования. Изучить влияние Ковид-19 на структуру материнской смертности в Кыргызской Республике за период 2020-2021 гг.

Results and Discussion. The findings demonstrated that 49 out of 120 students (40.8%) had elevated or borderline high blood pressure levels, despite their young age. Among this group, a significant majority (83.7%) reported moderate to high stress levels, reflected by PSS-10 scores above 20 points. Notably, 61.2% of hypertensive students had no hereditary predisposition, pointing to a dominant role of acquired behavioral and emotional triggers. The most prevalent stressors included

excessive academic demands (86.4%), emotional burnout due to lack of rest (72.3%), examination anxiety (69.8%), sleep deprivation (66.7%), and socioeconomic difficulties (53.2%). In this subgroup, irregular sleep patterns, insufficient physical activity, and frequent consumption of caffeine-containing beverages were also significantly more common. Heart rate was on average 11 bpm higher in the hypertensive group, and their BMI values tended to be slightly elevated. Biochemical analysis revealed increased cortisol concentrations in 14 out of 20 tested students with elevated BP, supporting the hypothesis of neuroendocrine activation under chronic stress. A statistically significant positive correlation ($r = 0.51$, $p < 0.01$) was observed between the PSS score and systolic blood pressure. These results confirm that prolonged exposure to stressors activates the hypothalamic-pituitary-adrenal (HPA) axis and sympathetic nervous system, which can provoke vascular tone abnormalities and lead to persistent hypertension, even in young populations.

Conclusion .This research underscores the critical influence of psychological and behavioral stressors on the early development of arterial hypertension among medical students. The data clearly demonstrate that chronic stress, in combination with disrupted lifestyle routines, has a profound effect on cardiovascular regulation and may lead to preclinical or established hypertensive conditions. Preventive strategies should focus on early screening for elevated stress levels and timely correction of modifiable risk factors through health education, psychological counseling, and the promotion of healthy habits. Implementation of stress reduction techniques, such as mindfulness practices, adequate rest, and regular physical exercise, could significantly reduce the incidence of hypertension in the student population. Universities and academic institutions must recognize the growing burden of psychosocial stress among youth and integrate mental health programs as part of comprehensive student support systems to safeguard long-term cardiovascular health.

TIBBIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR. TELEMEDISINA.

Turdimurodov Baxtiyor Qurbonovich.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta oqituvchisi.

baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com

Yo‘ldoshev Azizbek Najmiddin o‘g‘li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Pediatriya fakulteti 1-kurs talabasi

ayoldoshev81@gmail.com

ANNOTATSIYA

Sog‘liqni saqlash amaliyotiga axborot texnologiyalarining joriy etilishi shifokorlar va bemorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakl va usullarini, diagnostika va davolash jarayonlarini, kasalliklarning oldini olish va sog‘lomlashtirish usullarini o‘zgartiradi. Keksa va yosh foydalanuvchilar hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati va undan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyatning boshqa qatlamlari o‘rtasida paydo bo‘layotgan raqamli tafovutga e‘tibor qaratiladi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashda mas‘uliyatning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli tibbiyot, raqamli tafovut, raqamli texnologiyalar, xavf va xavf, mas‘uliyat, fanning axloqiy asoslari, teletibbiyot texnologiyalari

АННОТАЦИЯ

Внедрение в практику здравоохранения информационных технологий изменяет формы и способы взаимодействия врачей и пациентов, процедуры диагностики и лечения, методики профилактики заболеваний и восстановления здоровья. Обращается внимание на намечающееся цифровое неравенство между богатыми и бедными странами, пожилыми и молодыми пользователями, другими сегментами глобального общества, имеющими доступ и потенциал использования информационных технологий. Рассматривается специфика ответственности при применении цифровых технологий.

Ключевые слова: цифровая медицина, цифровой разрыв, цифровые технологии, риски и опасности, ответственность, этические основания науки, телемедицинские технологии

ABSTRACT

The introduction of information technologies into healthcare practice changes the forms and methods of interaction between doctors and patients, diagnostic and treatment procedures, methods of disease prevention and health recovery. Attention is drawn to the emerging digital divide between rich and poor countries, older and younger users, and other segments of the global society that have access to and potential use of information technology. The specificity of responsibility in the application of digital technologies is considered.

Keywords: digital medicine, digital divide, digital technologies, risks and dangers, responsibility, ethical foundations of science, telemedicine technologies

Kirish.

Tibbiyotda raqamli texnologiyalar va telemedicina zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu sohalar nafaqat sog‘liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash, balki bemorlarga qulaylik yaratish va sog‘liqni saqlash tizimini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Tibbiyot va sog‘liqni saqlash sohasida, ayniqsa, biotexnologiya, genetik injeneriya, biologiya, nanotexnologiya, texnologiya kabi ilmiy yo‘nalishlarda olimlarning odob-axloqi va mas’uliyati masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. So‘nggi paytlarda raqamli tibbiyot va yangi texnologiyalarni ijtimoiy idrok etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Sog‘liqni saqlash amaliyotiga axborot texnologiyalarining joriy etilishi shifokorlar va bemorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning shakl va usullarini, diagnostika va davolash jarayonlarini, kasalliklarning oldini olish va salomatlikni tiklash usullarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar tibbiyotda quyidagi maqsadlarda keng qo‘llanilmoqda:

1. Tibbiy ma’lumotlarni boshqarish:

- Elektron tibbiy kartalar (ETK) orqali bemorlarning sog‘liq holati haqidagi ma’lumotlarni saqlash va almashish.
- Bulutli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni xavfsiz boshqarish.

2. Tahlillarni avtomatlashtirish:

- Sun‘iy 112ermentat (AI) yordamida 112ermenta, MRT, KT kabi tekshiruvlarni avtomatik tahlil qilish.
- Laboratoriya natijalarini tez va aniqlik bilan olish.

3. Nosozliklarni oldindan aniqlash:

- Kasalliklar xavfini aniqlash uchun algoritmlar va tahliliy dasturlar.
- Kuzatuv qurilmalari yordamida yurak urishi, qon bosimi va boshqa hayotiy ko‘rsatkichlarni monitoring qilish.

4. Robotlashtirilgan jarrohlik:

- Robotlar yordamida murakkab jarrohlik operatsiyalarini amalga oshirish.
- Jarayonni yuqori aniqlik va kam invaziv usullar bilan bajarish.

Hozirgi vaqtda kompyuterlar tibbiyotning ko‘plab sohalarida keng tarqalgan. Kompyuterlashtirilgan shifokor buyrug‘iga kirishdan boshlab – shifokor retseptlarining kompyuterlashtirilgan tizimi, operatsiyalar paytida jarrohlarga yordam beradigan robot stajyorlar bilan yakunlanadi. Shuningdek, kompyuterlar umuman klinikalar ishida muhim rol o‘ynaydi, turli ma‘muriy vazifalarni rejalashtirish va bajarish, moliyani kuzatish, inventarizatsiyani o‘tkazish va hokazolarda yordam beradi.

Shunday qilib, IT-industriyasi foydalanuvchilarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib borayotgan tobora kengayib borayotgan imkoniyatlar (veb-ilovalar, “aqlli sensorlar” va boshqalar)ni taqdim etadi.

Bunday imkoniyatlardan birinchi navbatda sport va faol turmush tarzi muxlislari foydalanadi (masalan, 2006 yildan beri Nike tagida datchikli krossovkalar chiqarmoqda, Adidas yurak urishini o‘qiydigan elektrodli futbolkalarni chiqarmoqda, bilaguzuklar va soatlar mavjud. Jismoniy faollikni qayd etish, odam egilib turganda turli datchiklar signal beradi va bu ma‘lumotni smartfonga uzatadi, “aqlli uyg‘otuvchi soatlar” uyquning eng mos bosqichida signal ishlab, yetarlicha uyqu olishga yordam beradi).

Shuningdek, IT-texnologiyalar o‘z sog‘lig‘ini profilaktika qiladigan odamlar tomonidan qo‘llaniladi va bemorlar o‘zlarining farovonligini masofadan nazorat qilishlari uchun zarurdir. Germaniyada, 2020 yildan boshlab, dunyoda birinchi marta, ular retsept bo‘yicha mavjud bo‘lgan va qandli diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun raqamli kundaliklarni, fizioterapiya yoki psixoterapiya muolajalarini qo‘llab-quvvatlash funktsiyalarini, shuningdek, qon bosimini o‘lchashni o‘z ichiga olgan tibbiy ilovalarni yozishni boshladilar[1].

Shubhasiz, sog‘liqni saqlash tizimining kelajagi raqamli tibbiyotni yanada rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Qisqa muddatda raqamli tibbiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari elektron tibbiy yozuvlarni joriy etish, “bog‘langan bemor” konsepsiyasini ishlab chiqish (holatni kuzatish va o‘rnatilgan smart-qurilmalar yordamida tibbiy xizmatlar ko‘rsatish) va telemeditsina. Keng manoda, “aqlli sog‘liqni saqlash” so‘nggi mobil va kompyuter sozlamalaridan aqlli sog‘liqni saqlashni anglatadi, bu esa sog‘liqni saqlashni nazorat qiladi.

Ko‘pgina klinikalar ma‘muriy vazifalar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni saqlash va uzatish uchun tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlardan foydalanishni

boshladilar.

Kompyuter texnologiyalari ma'lumotnoma ma'lumotlarini har qanday shifokor yoki bemorga taqdim etdi. Bugungi kunda deyarli har bir odamda shaxsiy kompyuter yoki qo'l qurilmasi (planshet, smartfon, PDA) mavjud bo'lib, u unga kerakli tibbiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi[2].

Telemedisina – masofaviy tibbiy xizmat ko'rsatish usuli bo'lib, zamonaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. U quyidagi xizmatlarni o'z ichiga oladi:

1. Masofaviy konsultatsiyalar:

- Bemorlarga videomuloqot orqali shifokorlar bilan maslahatlasha olish imkoniyati.
- Katta masofadagi shifokorlar bilan tajriba almashish.

2. Monitoring tizimlari:

- Uy sharoitida masofadan turib bemorning sog'lig'i ustidan kuzatish.
- Nosozliklar aniqlanganda avtomatik signal beruvchi qurilmalar.

3. Ta'lim va o'quv dasturlari:

- Shifokorlar uchun onlayn o'quv kurslari va seminarlar.
- Bemorlarga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish.

4. Favqulodda vaziyatlar uchun xizmatlar:

- Qiyin sharoitlarda yoki olis hududlarda bemorlarga tez yordam ko'rsatish.
- Epidemiyalar va tabiiy ofatlar paytida xizmatlarni muvofiqlashtirish.

Afzalliklari:

- Tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirish.
- Tibbiy xizmat sifatini oshirish va vaqtni tejash.
- Sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini kamaytirish.

Kamchiliklari:

- Ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashdagi qiyinchiliklar.
- Qurilmalar va texnologiyalar bilan bog'liq texnik muammolar.
- Har bir bemor uchun moslashuvchan xizmatlarni ta'minlash zarurati

Kompyuter texnologiyalari hayotimizning boshqa sohalariga tobora chuqurroq kirib boradi, yaxshi yoki yomon ko'plab yangi narsalarni olib keladi, ba'zida buni aytish qiyin. Ammo taraqqiyotni faqat yangi narsadan qo'rqish bilan

to‘xtatib bo‘lmaydi. Bu tibbiyotga ham tegishli. Agar ba‘zi jasurlar ularni avvalgidan boshqacha davolashga qaror qilmasalar, ko‘plab kasalliklar davolab bo‘lmaydigan bo‘lib qoladi. Esda tutish kerak bo‘lgan asosiy narsa shundaki, inson texnologiyani yaratadi, inson uni yaxshilaydi va buning uchun faqat u javobgar bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etishning yangi usullarini ishlab chiqishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ko‘pgina mamlakatlar uzoq vaqtdan beri sog‘liqni saqlash sohasida yangi texnologiyalardan faol foydalanmoqda. Bemorlar va xodimlar uchun telekonsultatsiyalar o‘tkazish, turli muassasalar o‘rtasida bemorlar haqida ma‘lumot almashish, fiziologik ko‘rsatkichlarni masofadan turib qayd etish, operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish — bularning barchasi tibbiyotga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali taqdim etilmoqda. Bu sog‘liqni saqlashni axborotlashtirishni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi, uning faoliyatining barcha jabhalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Axborot tizimlari tibbiyot va sog‘liqni saqlashning barcha sohalarida mavjuddir. Tibbiyot sohasida axborot almashishning turli ko‘rinishlaridan foydalanish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir. Ularning tartibga solinishi tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimida axborotlarning avtomatlashtirilgan almashinuviga erishish, bu soha xodimlarining ish faoliyati unumdorligini oshirib, bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi[3].

Keyingi paytda mamlakatimiz tibbiyot muassasalarida multimediyali, animatsiyali 115ermenta ma‘lumotlar baza saytlarini zamon talablarini, foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning sifat va samarasini oshirish uchun talablarni hisobga olgan holda yaratish musobaqasi boshlandi. Ularning ko‘pchiligi qaysidir 115ermen bilan ustun bo‘lsa, boshqa 115ermen bilan hali qayta ishlashni, o‘zgartirishni talab etadi. Shuning uchun mamlakatimizda mavjud saytlarni tahlil qilishga, o‘rganish bilan birga, kelgusida yaratilishi lozim bo‘lgan dasturlarni ishlatishning qulayligiga e‘tiborni qaratdik.

Mamlakatimizdagi tibbiyot muassasalarida 115ermenta hujjatlarni yaratish va saqlash masalalarini yoritish, shu mavzuga oid ma‘lumotlar bazasini shakllantirish hamda bu ma‘lumotlar bazasidan foydalanish siyosatini ishlab chiqish zamonaviy tibbiyot muassasalarining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Foydalanuvchilarga zamon talablariga mos ravishda tezkorlik bilan yetkazish hamda ularni 115ermenta ko‘rinishga o‘tkazish vazifasi asosiy maqsadlarimizdan biridir. Tibbiyot muassasalarining 115ermen faoliyati davomida ushbu ma‘lumotlar bazasi 115ermenta hujjatlarga doir ma‘lumotlar bilan to‘ldirib boyitilib shakllangan ko‘rinishga aylanib boraveradi. Elektron hujjatlarni boshqarish tizimi bu 115ermenta hujjatlarni yaratish, saqlash, manipulyatsiya qilish va joylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beruvchi kiritmalar va dasturlar

to‘plamidir. Fan va texnikaning misli ko‘rinmagan yutuqlariga ega hayotning o‘zi axborotlarni yangicha, ilg‘or usulda tez yaratish, saqlash, uzatish va ularga ega bo‘lishning qulay yo‘llarini ko‘rsatib bermoqda[4].

Xulosa.

Axborot oqimlari bilan ishlash uchun sog‘liqni saqlash tizimida axborot tizimlari yaratilgan bo‘lib axborot tizimi tashkiliy tartibga solingan hujjatlar va axborot texnologiyalari yordamida, shu jumladan axborotni qayta ishlash jarayonlarini amalga oshiradigan xisoblash texnikalari va aloqa kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning umumlashtirilgan yig‘indisidir. Tibbiy axborot tizimlarining maqsadi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning turli vazifalarini qo‘llab quvvatlash, tibbiyot muassasalarini boshqarish va sog‘liqni saqlash tizimining o‘zini axborot boshqaruvida axborot almashinuvini ta‘minlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1].M.I.Bazarbayev, A.K.Tulaboyev, E.Ya.Ermetov, D.I.Sayfullayeva, Sh.X. Abdug‘aniyeva, D.N.Isamuxamedov. “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan tibbiyot oily ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Birinchi nashr. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent-2018 yil.

[2].Kurbanovich T. B., Ulaboyevich K. S. Effective use of digital technologies in the medical education system //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 473-477.

<https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1092>

[3].Turdimurodov B. K., Khursanov S. U. Innovation of pedagogical technologies in the process of remote control unit //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 992-997.

[4].Turdimurodov B. Et al. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI: ALOQA TARIXI, AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 7. – C. 140-146. <https://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/5208>

**SURUNKALI OSTRUKTIV BRONXITNING
IMMUNKORREKSIYALOVCHI TERAPIYA DINAMIKASIDA IMMUN
HIMOYANING XARAKTERI**

**Toshniyazova G , SamDTU,
davolash fakulteti 406-gurux
Ilmiy raxbar: 4-ichki kasalliklar kafedrası,
dotsent, Xoljigitova M.B.**

Kirish. Surunkali obstruktiv bronxit tarqalganligi va tez-tez qaytalanib turishi tufayli boshqa kasalliklardan aloxida farq qiladi va dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Surunkali obstruktiv bronxitni davolashda standart-kompleks davolash bilan birga immunomodulyator kversetinni qoʻshib tavsiya qilish va dinamikada immun tizim holatini baholash.

Materiallar va usullar. Shahar tibbiyot birlashmasida statsionar va ambulator davolangan, MKB 10 boʻyicha surunkali obstruktiv bronxit tashxisi qoʻyilgan 43 ta bemor, 21 ta sogʻlom guruxdagilar tanlab olingan. Bemorlar 117erme 11-30 yoshni tashkil qildi (oʻrtacha yosh 18,3). Ular 28 ta erkak va 15ta ayollardan iborat. Kasallik anamnezining oʻrtacha davomiyligi 5,5 +-0,45-yil. Nazorat guruxi 21ta sogʻlomlar, jumladan 15ta erkak va 6ta ayol, oʻrtacha 117erme 16,3. Tashqi nafas funksiyasini aniqlash «SPIROSIFT-5000» apparati bilan oʻtkazildi. Tekshirilganlarda 117ermen tizim holatini oʻrganish maqsadida 117ermen statusning asosiy miqdoriy koʻrsatkichlarini baholash uchun qon zardobida umumiy limfotsitlar, leykotsitlar va T-limfotsitlar subpopulyatsiyasi asosiy tarkibini: CD4+,CD8+,CD16 va CD23+,CD25 miqdori davolashgacha va davolashdan keyin aniqlandi. Qon zardobida limfotsitlarning subpopulyatsion tarkibini aniqlash usullari immunkompenet hujayralar fenotipi 117ermentati antitelolar yordamida aniqlandi. Immun tizimi holati CD-differensiallanuvchi va faollashgan antigenlar ekspressiyasi boʻyicha baholandi. («Sorbent», Moskva, RF mahsuloti) orqali Samarqand 117ermen skrining markazida oʻtkazildi. 20 ta 1gurux bemor standart davolash va 2 gurux 23ta bemor standart davolash bilan birga kversetin tavsiya qilindi. 2 ta guruxda xam 117ermen tizim holati oʻrganildi.

Tadqiqot natijalari. Bemorlarda klinik belgilar quyidagicha: yoʻtal 100%, balgʻam ajralishi koʻp 93%, balgʻam ajralishi kam 75,83, havo yetishmasligi 100%, intoksikatsiya belgilari 56,66%, xansirash 40,83% holatda kuzatildi. Surunkali obstruktiv bronxitda kversetin bilan immunokorreksiyalashdan keyingi klinik-immunologik siljishlar dinamikasi koʻrsatkichlari samadorligini oʻrgandik. Kversetin paketchada dozalangan preparat, 20 ta kasalga tavsiya qilindi. Preparat immunokorrigirlovchi, antioksidant taʼsir koʻrsatadi. Bir paketchadan ikki mahal

oʻn kun davomida berildi. Ikki xaftadan keyin yana qayta tekshirildi. Davolashdan oldin taqqoslash guruxi bilan solishtirganda xujayra immuniteti oʻzgarishlari oʻrtasida yaqqol farq borligini koʻrish mumkin. Limfoid hujayralarning subpopulyatsion tarkibini oʻrganishda oʻziga xos faollik va pasayishi va davolashdan keyin natijalarini koʻrish mumkin. Yalligʻlanishda birinchi oʻrinda leykotsitlar oshishi maʼlumki, taqqoslash guruxiga $6,69 \pm 2,0$ qaraganda davolashgacha boʻlgan bemorlarda $8,9 \pm 1,2$ balandligi va davolashdan keyin $6,8 \pm 1,8$ samarali $p < 0,02$ pasayganligini aytish mumkin. Cd3,+% normada $51,6 \pm 1,1$, davolashgacha $44,22 \pm 0,5$, davolashdan keyin $45,3 \pm 0,9$ ($p < 0,05$). Cd4,+%. Normada $28 \pm 1,2$, davolashgacha $22 \pm 0,9$, davolashdan keyin $25 \pm 1,9$ ($p < 0,05$). Cd8,+% normada $22 \pm 0,9$, davolashgacha $18 \pm 0,6$, davolashdan keyin $21 \pm 0,8$ ($p < 0,05$). Cd16,+% normada $18 \pm 1,3$, davolashgacha $16,6 \pm 0,7$, davolashdan keyin $19 \pm 0,9$ ($p < 0,05$). Qolgan subpopulyatsiyalarida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilmadi. Kompleks davolashdan keyin hujayra immuniteti xalqasida ijobiy tomonga samaradorlik koʻrsatkichlari aniqlandi. Anʼanaviy davolanagan bemorlarda obstruksiya belgilari 9-10 kun davomida bartaraf etildi. Kompleks davolashda bu belgilar 6-7 kunlari yoʻqoldi.

Xulosalar. Korreksiyalashdan kutilayotgan natijalar: yuqori samaradorlik, bemorlarning kasalxonada davolanish kuni qisqarishi, bemor ahvolidning tez yaxshilanishi, oʻpka fizikal oʻzgarishlarining joyiga kelishi, bronxoobstruktiv sindromning bartaraf etilishi 14,3-54,8% koʻtarilishiga olib keladi.

JIGAR SIRROZINI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDOSHUV

Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o‘g‘li.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
2-son Davolash ishi fakultetining 5-bosqich talabasi.

Ilmiy rahbar: Islamova Kamola Akramovna.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
1-son ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, PhD

Samarqand, O‘zbekiston

+998 93 179 11 13; +998 99 909 22 25

doctorfazliddinov1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada jigar sirrozi bilan kasallangan bemorlarda oshqozon-ichak trakti funksional holati, hazm va defekatsiya jarayonlarining buzilishlari, shuningdek ichak mikroflorasi o‘zgarishlari – disbakterioz holatlari klinik va laborator tadqiqotlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida bemorlarga maxsus ishlab chiqilgan anketa savollari asosida so‘rovnoma o‘tkazildi, axlat namunalarining makroskopik, mikroskopik va mikrobiologik tahlillari bajarildi. Olingan natijalar jigar sirrozida hazm va so‘rilish jarayonlarining buzilishi, maldegistiya sindromi, ichak mikrobiotasining disbalansi kasallikning Chayld-Pyu klassifikatsiyasi bo‘yicha og‘irlik darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ushbu holatlar kasallik oqibatlarini og‘irlashtiruvchi omillardan biri sifatida baholandi. Muolajaviy yondashuvda esa traditsion terapiyaga qo‘shimcha ravishda fermentative preparatlar (mezim, kreon, festal, fermentati), disaxaridlar (laktuloza, dyufalak), probiotik vositalar (xilak forte, laktobakterin) va ichak florasini tiklovchi vositalarni qo‘llash tavsiya etildi. Kompleks yondashuv kasallikni simptomatik nazorat qilishda va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlandi. **Kalit so‘zlar:** jigar sirrozi, oshqozon-ichak trakti, disbakterioz, maldegistiya, fermentative preparatlar, probiotiklar, Chayld-Pyu klassifikatsiyasi, defekatsiya buzilishi, ichak mikrobiotasi

Аннотация: В данной научной статье рассматривается функциональное состояние желудочно-кишечного тракта, расстройства пищеварения и

дефекации, а также изменения кишечной микрофлоры (дисбактериоз) у пациентов с циррозом печени на основе клинико-лабораторных исследований. В ходе исследования были использованы специально разработанные анкеты и опросники, проведён макро- и микроскопический, а также микробиологический анализ кала. Полученные результаты показали, что нарушения пищеварения и всасывания, синдром мальдигестии и дисбаланс микробиоты кишечника прямо коррелируют со степенью тяжести заболевания по классификации Чайлд-Пью и могут рассматриваться как факторы, утяжеляющие течение болезни. В терапевтическом подходе наряду с традиционным лечением рекомендовано широкое применение ферментативных препаратов (мезим, креон, фестал, панкреатин), дисахаридов (лактолоза, дюфалак), пробиотиков (хилак форте, лактобактерин) и средств для восстановления микрофлоры кишечника. Комплексный подход играет важную роль в контроле симптомов и повышении качества жизни пациентов.

Ключевые слова: цирроз печени, желудочно-кишечный тракт, дисбактериоз, мальдигестия, ферментные препараты, пробиотики, классификация Чайлд-Пью, нарушение дефекации, микробиота кишечника

Abstract: This scientific article explores the functional state of the gastrointestinal tract, digestive and defecation disorders, as well as changes in intestinal microflora (dysbiosis) in patients with liver cirrhosis, based on clinical and laboratory studies. The study involved the use of specially developed questionnaires and surveys, as well as macro-, microscopic, and microbiological stool analyses. The results revealed that digestive disorders, maldigestion syndrome, and intestinal microbiota imbalance correlate with the severity of the disease according to the Child-Pugh classification and may serve as aggravating factors in the disease course. In addition to traditional therapy, the treatment approach recommends the wide use of enzyme preparations (Mezim, Creon, Festal, Pancreatin), disaccharides (Lactulose, Duphalac), probiotics (Hilak Forte, Lactobacterin), and agents for restoring intestinal microflora. A comprehensive approach is shown to be essential in symptom control and improving patients' quality of life.

Keywords: liver cirrhosis, gastrointestinal tract, dysbiosis, maldigestion, enzyme preparations, probiotics, Child-Pugh classification, defecation disorders, intestinal microbiota

Kirish: Jigar va o't yo'llari kasalliklari hozirgi vaqtda gepatologiyaning muhim va ko'p jixatlardan echimini topolmay kelayotgan muammolaridan hisoblanadi [1;2;3.].

Jigar va ichak mikroflorasi organizmning ikkita o‘zaro bog‘liq detoksikatsion tizimi hisoblanadi. Jigar zararlanishlari toksik moddalarni ko‘payishiga va ularni ichak mikroflorasiga ta‘sir etib, ichakda mikroekologik buzilishlarga olib keladi. O‘z navbatida, ichakdagi mikroekologik buzilishlar ichak mikroflorasining detoksikatsion funksiyasining pasayishiga sabab bo‘lib, portal vena orqali jigarga ko‘plab toksik moddalar kelishini kuchaytiradi va jigarga bo‘lgan toksik ta‘sirni oshiradi. Jigar kasalliklari va ichak mikroflorasi buzilishlarida o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan patologik halqa hosil bo‘lib, bu halqa tizimidagi jarayonlarning bog‘liqlik darajasining oshuvi bemorlarning xayot davomiyligini hal etadi [4;5;6].

Ishning maqsadi: jigar sirrozi kasalligida oshqozon-ichak trakti o‘zgarishlari va hazm buzilishlarini aniqlash, hamda bu o‘zgarishlarning davolashda dori vositalarning ahamiyatini o‘rganish.

Tekshirish materiali va usullari: Tadqiqotlardan virus etiologiyali jigar sirrozi bilan kasallangan 59 bemor o‘tkazildi. Ko‘zatuvarimizda 59 bemordan 41 nafari virusli gepatitning B shaklini, 8 nafari A shaklini o‘tkazganlarini ta‘kidlasalar, 10 bemor – virusli gepatitning qaysi shakli bilan kasallanganligi aniq bilmadilar. O‘tkazilgan virusli gepatitdan keyin jigar sirrozining kelib chiqish davomiyligi $7,6 \pm 0,6$ yilni, kasalligining o‘rtacha davomiyligi esa $1,3 \pm 0,2$ yilni tashkil etdi. Tekshiruvlarimizda erkaklar ko‘p bo‘lib, ular 33 kishidan (56,0%), ayollar esa 26 kishidan (44,0%) iborat edilar. Bemorlar yoshiga ko‘ra, 6 (10,1%) bemor – 14-20 yoshda, 36 (61,0%) bemor – 21-50 yoshda, 17 (28,9%) bemor – 51-68 yoshda edilar. Jins va yoshga ko‘ra, ayollar va erkaklar orasida kasallik eng ko‘p 31-50 yoshda aniqlandi va bemorlarning o‘rtacha 121erme – $40,5 \pm 1,9$ yilga yilga teng bo‘ldi. Chayld (1979) mezonlariga ko‘ra, 22,0% bemorda kasallikning dastlabki (A) bosqichi, 45,8% bemorda – ifodalangan sirroz (V) bosqichi va 32,2% bemorda – kechki sirroz (S) bosqichi ko‘zatildi.

Barcha bemorlar qabul qilingan standartlar asosida klinik, laborator va instrumental tekshiruvlardan o‘tkazildi. Jigar sirrozi tashxisi dispepsik, sitolitik, gemorragik, xolestatik, gepato- va splenomegaliya, portal gipertenziya, assitik, asteno-vegetativ sindromlarning klinik, laborator va instrumental belgilari asosida qo‘yildi. Kasallikning ob‘ektiv belgilaridan 86,4% bemorda assit ko‘zatilib, darajasiga ko‘ra 50,1% bemorda – kuchli ifodalangan, 30,1% bemorda – kam ifodalangan (fizikal tekshiruvlarda aniqlangan) 15,3% bemorda – juda kam ifodalangan (UTT aniqlangan) assit aniqlandi. 62,7% bemorda gepatomegaliya, 49,2% bemorda – splenomegaliya, 38,9% bemorda - jigar va taloqning birgalikda kattalashuvi aniqlandi. Kasallikning boshqa belgilardan – teri rangining oqarishi va turgorining pasayishi (91,5%), teri osti yog klechatkasining juda kam rivojlanishi (71,2%), mushaklar gipotrofiyasi (67,8%) va o‘ta ozg‘inlik (40,0%) kabi belgilar ko‘zatildi. Hazm traktining «oynasi» hisoblangan tildagi o‘zgarishlar faqat

«malina» rangidagi til tipidagi oʻzgarish (80,0%) bilan kechmay, bemorlarda eng koʻp – til uchi giperimiyasi (96,5%) topildi. 57,6% bemor tilining diffuz tarzda, 27,1% - fakat ildiz sohasida oq karash bilan qoplanganligi, 52,5% - til surgʻichlarining atrofiyasi, 44,1% - til uchlarida tish izlari xam harakterli boʻladi.

Maxsus tekshiruvlarimiz bemorlarning hazm buzilishlariga oid anamnezni yigʻish, ularning turmush tarzi, ovqatlanish tartibi, zararli odatlari, kasbiy omillarni oʻrganishga qaratildi. Oshqozon-ichak buzilishlari klinik belgilarini aniqlashda hazm jarayonini buzilishi (maldigestiya), surilishning buzilishi (malabsorbsiya), ichak taʼsirlanish sindromi, anorektal sindrom va vitamin etishmovchiligi sindromlari belgilarining ifodalanishi hisobga olindi. Bemorlar axlatiga chuqur eʼtibor qaratilib, bemorda qabziyat bormi, defekatsiya soni, axlat konsistensiyasi, defekatsiyada ogʻriq borligi, axlatda qon, yiring boʻlishi va defekatsiya jarayoning kechishiga eʼtibor berildi. Defekatsiya jarayonini baholashda proktologik anketa usulidan foydalanildi. Anketa savollariga javob ballarda berilib, inkor javoblarga ball berilmadi. Ballar yigʻindisiga kura, defekatsiya jarayoni buzilmagan (0-20 ball) yoki engil (21-35 ball), oʻrtacha ifodalangan (36-45 ball) va ogʻir oʻzgarishlarga (46-65 ball) tarzda baholandi.

Axlatning laboratorik tahlilida hazm jarayonlari elementlari – mushak, qushuvchi tuqima tolalari, yogʻ va yogʻ mahsulotlari, oʻsimlik kletchatkasi, kraxmal, qon hujayralari, makrofaglar, oʻsma hujayralari, kristall hosilalari, bakteriya va zamburugʻlarni aniqlashga eʼtibor qaratildi. Ichak mikrobiotsenozi oʻzgarishlari (disbakterioz darajasi) klinik belgilar va ichak mikroflorasini bakteriologik tekshiruvni asosida aniqlandi. Ichak mikrobiologik xolatining buzilish darajasini bilish maqsadida 29 bemor axlati bakteriologik tekshiruvdan oʻtkazildi. Bakteriologik tekshiruvlar etaloni sifatida S.D.Mitroxin (1996) tomonidan amaliy sogʻlom kishilar 1 gramm axlatida aniqlangan ichak mikroflorasi miqdori qabul qilindi (6). Disbakterioz darajasini aniqlash maqsadida ichak mikroflorasi – bifidobakteriya va laktobatsillalar, shartli patogen flora – enterobakteriyalar va esherixiyalar, patogen mikroflora – protey, stafilokokklar, zamburugʻlar oʻsishi nazoratga olindi. Disbakterioz ifodalanish darajasi tasnifga koʻra, I (kompensatsiyalangan, latent), II (subkompensatsiyalangan), III (dekompensatsiyalangan) va IV (generalizatsion) daraja tarzida baholandi.

Olingan natijalar: Tekshiruvlarimizda jigar sirrozi kasalligida eng koʻp rivojlanadigan belgilaridan biri – dispeptik sindrom (74,6%) ekanligi aniqlandi. Qorin sohasida diskomfort boʻlishi (23,7%), oʻng qovurgʻa sohasida ogʻriq (16,9%), yogʻliq ovqatlarni hazm qila olmaslik (38,9%), qabziyat (16,9%), kungil aynishi (59,3%), kekirish (54,2%), qoʻsish (10,1%), meteorizm (74,6%) kabi shikoyatlar dispeptik sindromga xos boʻldi. Hazm jarayoniga aloqador boshqa belgilardan kasallik 28,8% bemorlarda malabsorbsiya, 32,2% - ichak taʼsirlanishi,

23,7% - 123ermentat sindrom va 15,3% - vitamin etishmovchiligi sindromi belgilari bilan ham kechdi. Hazm jarayonning aniq ifodalangan buzilishi (maldigestiya) belgilari 15,3% - engil darajada (bir sindrom), 11,8% - oʻrta darajada (ikki sindrom), 8,5% – ogʻir darajada (uchta sindrom) va 5,1% - oʻta ogʻir darajadagi kechishigaga ega boʻldi.

Kasallikda axlatda bir qator makroskopik oʻzgarishlar: bijgʻish uchun harakterli boʻlgan belgilar, lientoreya boʻlishi hazm oʻzgarishlarini tashkil etadi. Axlatni mikroskopik tekshiruvda goʻsht mahsulotlarini yaxshi hazm boʻlmayotganligi belgisi (30,5%) topilib – kasallikda oshqozon shirasi etishmovchiligi va gastrogen dispepsiya holatlaridan darak berdi. Oshqozon osti bezi etishmovchiligidan darak beruvchi – steatoreya 37,3% bemor uchun harakterli boʻldi. 83,0% bemorlarda defekatsiya jarayoni buzilib, 27,1% bemorda engil oʻzgarishlar, 30,5% bemorda – oʻrtacha oʻzgarishlar, 25,4% bemorda – ogʻir oʻzgarishlar aniqlandi. Bu oʻzgarishlar anorektal sindrom asosida yotadi.

Tadqiqotlarimizda jigar sirrozida ichakda disbakterioz holatiga mos keluvchi mikrobiologik oʻzgarishlar yuzaga kelishi aniqlandi. Bakteriologik tekshiruvda, bifidobakteriya va laktobatsillalar 21 bemor axlatida oʻsdi (72,4%) va amaliy sogʻlom kishilar axlatidagi ushbu bakteriyalar miqdoridan kam boʻldi (96,0-98,0%). 93,2% bemor axlatida enterobakteriya – enterokokklar (fekal streptokokklar) oʻsish berib, bu koʻrsatkich amaliy sogʻlom kishilarda ushbu oilaga mansub bakteriyalar miqdoridan koʻp boʻldi (80,2%). Jigar sirrozida axlatning mikrob tarkibini oʻzgarishlari – esherixiyalar sonining kamayishi (41,3% ga 100,0%), protey oilasiga mansub mikroblarning (17,2% ga 2,0%) va stafilokokklarning (27,6% ga 15,0%) koʻpayishi bilan ham kechdi. Amaliy sogʻlom kishilarga xos boʻlmagan zamburugʻlar, jigar sirrozi bilan kasallangan 3 bemorning axlatidan topildi (10,3%). Ushbular asosida koʻzatuvimizdagi 4 bemorga (13,8%) asorat sifatida I darajali kompensatsiyalangan, 13 bemorga (44,8%) II darajali subkompensatsiyalangan va 12 bemorga (41,4%) III darajali dekompensatsiyalangan disbakterioz tashxisi qoʻyildi. Chayld mezonlari boʻyicha tahlil etilganda hazm buzilishlari kasallikning barcha bosqichlarida aniqlanib, dispeptik belgilarning uchrash salmogʻI sirrozning subkompensatsiya va dekompensatsiya bosqichlarida kompensator davrga nisbatan koʻp boʻldi.

Yuqorida koʻrsatilgan oshqozon-ichak tizimi funksional oʻzgarishlari va hazm buzilishlari olib borilgan oshqozon ichak trakti rentgenologik tekshiruvlari va endoskopik tadqiqotlarda oʻz tasdigʻini topdi. Jigar sirrozi bilan kasallangan 21 bemor EFGDS tekshiruvidan oʻtkazilib, 23,7% - qizilungach va oshqozon venalarining varikoz kengayishi topildi. Shuningdek, oshqozon shilliq pardasining atrofiyasi (16,95%), shilliq parda yalligʻlanishi (40,7%), oshqozonda eroziya boʻlishi (10,1%), oʻn ikki barmoqli ichak yalligʻlanishi (35,6%), oshqozon va oʻn

ikki barmoqli ichak yara kasalligi (12,2%), oshqozon-qizilungach (32,6%) va duodeno-gastral reflyuks (11,8%) ham aniqlandi.

Jigar sirrozi kasalligini davolash prinsiplari jigar metabolizmini yaxshilash, assit va shishni kamaytirish, portal gipertenziya darajasini pasaytirish, ichak funksional holatini yaxshilash va yoʻldosh kasalliklarni davolashni oʻz ichiga oldi. Bizning koʻzatuvimizdagi bemorlarni davolashda bemorlarga 5-parhez stoli tayinlanib, medikamentoz davo muolajalaridan – gepatoprotektorlar, vitaminlar, oqsil preparatlari, detoksikatsion moddalar, beta-blokatorlar, diuretiklar va «jigar damlamalari» ishlatildi.

Hazm jarayonini yaxshilash maqsadida koʻrsatmaga koʻra, 124ermentative preparatlar, disaxaridlar, 124ermenta 124ermentat preparatlar – laktobakterin, baktisubtil, lineks va probiotik – xilak forte qoʻllanildi. Biologik bakterial preparatlar, probiotiklar, 124ermentative preparatlar qoʻllanishiga koʻra bemorlar 2 guruhga boʻlindi: I gurux (31 bemor) tekshiruvchilariga bu preparatlar tegishli koʻrsatmalarga koʻra, qabul qilingan dozalarda tavsiya etildi. II gurux tekshiriluvchilarga (28 bemor) bakterial preparatlar, probiotiklar va fermentlar tavsiya etilmadi. Davo natijalari 10-15 kunlar oraligʻida baholandi. Davolash natijalari «yaxshi» (simptomlar yoʻqolib, axlatda hazm boʻlmagan mushak va biriktiruvchi toʻqima elementlari topilmaganda), «qoniqarli» (simptomlar va axlatda hazm boʻlmagan elementlar kamayganda) va «qoniqarsiz» (klinik va laborator oʻzgarishlar ijobiy oʻzgarmaganda) tarzda baholandi.

Jigar sirrozini kompleks davolashda bakterial preparatlar, probiotiklar va fermentlar qoʻshish (I guruxda) dispeptik sindromning klinik va laborator belgilarining sezilarli darajada kamayishiga sabab boʻldi. Davolash natijasida qorin qoʻldirashi belgilari 4-6 kun, meteorizm belgisi – 7-8 kun, kindik va chambar ichak sohalarida ogʻriq simptomi – 8-9 kun, qabziyat belgilari – 10-11 kun, diareya – 3-4 davomida kamayib, aksariyat bemorlarda bu belgilar tekshiruv oxirida koʻzatilmadi. Asosiy guruxdagi 31 bemor axlatining tahlili, ulardan 21 nafar bemorda hazm boʻlmagan mushak, qoʻshuvchi tola, hamda steatoreya belgilarini aniqlashga imkon berdi. Ushbu 21 bemordan 14 bemor axlatining davolashdan keyingi qayta tekshiruvida hazm boʻlmagan elementlar aniqlanmadi, 4 bemorda – qisman aniqlandi va 3 bemorda – hazm boʻlmagan elementlar saqlanib qoldi. Koprologik tekshiruvda – 87,5% ijobiy natija aniqlandi. Umuman, I guruxda klinik va koprologik «yaxshi» natija 31 bemordan 18 bemorda (58,0%), «qoniqarli» natija – 9 bemorda (29,0%), «qoniqarsiz» natija – 4 bemorda (13,0%) qayd etildi.

Nazorat guruxida (II gurux) dispeptik belgilarning kamayishi sekinlik bilan bordi va aksariyat bemorlarda ushbu belgilar tekshiruv oxirida ham koʻzatildi. Nazorat guruxdagi 28 bemor axlatining tahlili, ulardan 7 nafar bemorda hazm boʻlmagan mushak, qoʻshuvchi tola, hamda steatoreya belgilarini aniqlashga imkon

berdi. Davolashdan keyingi dinamik tekshiruvda faqat 2 bemor axlatida hazm bo‘lmagan elementlar aniqlanmadi va 1 bemorda – hazm bo‘lmagan elementlar qisman saqlanib qoldi. Davodan keyin 4 bemorda – hazm bo‘lmagan elementlar umuman yo‘qolmadi va bu guruxda 42,9% koprologik ijobiy natija aniqlandi. Davolash natijalari nazorat guruhida 28 bemordan 12 (43,0%) bemorda «yaxshi», 7 (25,0%) bemorda – «qoniqarli» va 9 (32,1%) bemorda –«qoniqarsiz» sifatida baholandi.

Jigar, o‘t yo‘llari, oshqozon osti bezi, ovqat hazm qilish trakti uzviy ravishda funksional bog‘liqligi sababli, ushbu tizimdagi biror organning o‘zgarishi boshqalarining faoliyatiga ham ta’sir etadi. Oshqozon-ichak trakti jigar sirrozida eng ko‘p va chuqur o‘zgarishga uchrovchi tizim hisoblanadi. Portal gipertenziya, dimlanish, assit, jigar etishmovchiligi tufayli hazm jarayoni chuqur izdan chiqadi, hazm trakti shilliq qavatida distrofik va atrofik o‘zgarishlar rivojlanadi va bu o‘zgarishlar o‘z navbatida jigar faoliyati buzilishlarini yanada chuqurlashuviga olib keladi.

Xulosalar: Jigar sirrozi — bu jigar hujayralarining doimiy zararlanishi va ularning tiklanish imkoniyatlarining pasayishi bilan tavsiflanadigan kasallik bo‘lib, u ko‘plab tizimli buzilishlarga olib keladi. Ushbu kasallikning oshqozon-ichak trakti va hazm tizimiga ta’siri alohida e’tiborga molikdir, chunki bu tizimning funksional holati, hazm jarayoni va defekatsiya jarayonlarining buzilishi bemorning umumiy holatini yomonlashtiradi. Shuning uchun jigar sirrozi bemorlarini tekshirishda standart usullarga oshqozon-ichak trakti funksional holatini o‘rganish, hazm tizimining buzilishlari, proktologik surovnom, axlatning makroskopik va mikroskopik tekshiruvlari, shuningdek, mikrobiologik ekish usullarini qo‘shish zarur. Bunday tekshiruvlar jigar sirrozi bilan bog‘liq muammolarni yanada aniq va samarali aniqlashga yordam beradi. Jigar sirrozi kasalligining rivojlanishi bilan hazm va defekatsiya buzilishlari, maldegistiya (yomon hazm bo‘lishi) va disbakterioz (ichak mikroflorasining buzilishi) darajalari yanada kuchayadi. Ushbu buzilishlar, o‘z navbatida, kasallikning og‘irlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun, kasallikning oqibatlarini aniqroq belgilash va bemorning holatini yaxshilashda maldegistiya va disbakteriozning darajalarini hisobga olish muhimdir. Bu holatlarni nazorat qilish, davolash jarayonining samaradorligini oshirishda yordam beradi. Kasallikni davolashda an’anaviy terapiya bilan birgalikda, hazm jarayonini yaxshilash maqsadida 125ermentative preparatlar (masalan, mezim, festal, kreon, 125ermentati, panzinorm), disaxaridlar (dyufalak, laktuloza, floralek) va probiotiklar (laktobaktrim, xilak forte) kabi dorivor vositalaridan keng foydalanish zarur. Bu dori vositalari, oshqozon-ichak trakti faoliyatini normallashtirish, hazmni yaxshilash, ichak florasini tiklash va maldegistiya hamda

disbakterioz simptomlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, probiotiklar va fermentlar bemorning hazm tizimi ishini tiklashga, organizmning ozuqa moddalari va vitaminlarni so‘rib olish imkoniyatini yaxshilashga yordam beradi. Bu esa bemorning umumiy holatini sezilarli darajada yaxshilaydi, bemorlarning sifatli hayotini ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, jigar sirrozi kasalligining murakkabligini hisobga olgan holda, uning samarali davolanishi uchun kompleks yondashuv, shu jumladan, oshqozon-ichak tizimi va hazm jarayonlarini normallashtiruvchi terapiya zarur. Bemorlarni doimiy ravishda kuzatib 126erment, dori vositalarining samaradorligini muntazam baholash va individual terapiya yondashuvini joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Возможности лечения декомпенсированного цирроза печени обусловленного вирусом гепатита В. /Абдурахмонов Д., Ибрагимова М., Ильянова А./ Врач. 2019. Стр. 31-32
2. Алгоритмы диагностики и лечения в гастроэнтерологии. / Зуева Е.Б., Усманов Р.И./ Ташкент 2017.74С.
3. Мультиорганные гемодинамические нарушения при циррозе печени. /Гарбузенко Д.В./ Терапевтический архив. 2020. №2. Стр 73-77.
4. Состояние портальной системы и микросомальной системы гепатоцитов у больных циррозом печени с различной степенью портальной гипертензии и пути лекарственной коррекции. /Зуева Е.Б./ Автореферат диссертации д.м.н. Ташкент 2021. 28 С.
5. Болезни печени и желчевыводящих путей: руководство для врачей. /Ивашкин В.Т./ М.2015.
6. Циррозы печени. Вопросы этиологии, патогенеза, клиники, диагностики, лечения. /Садовникова И.И./ 2017. РГМУ, <http://www.medlinks.ru/article>.

DIABETIK KETOATSIDOZNI TASHXISLASH VA DAVOLASHNING YANGI STANDARTLARI

Xamidullayeva Zaynabxon Amangeldi qizi

Ubaydullayev Javohir Lutfullo o'g'li

Uchqunov Sirojiddin Zuhridin o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi 5- kurs talabalari

Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrası

Ilmiy rahbar: Yusupova Baxtigul

Yusupovna

Kirish. Diabetik ketoatsidoz — 1-tip qandli diabet bilan kasallangan bemorlarda uchraydigan hayot uchun xavfli, o'tkir 127ermentat asoratdir. Bu holat qonda glyukoza 127ermenta jismchalari darajasining oshishi, 127ermentat atsidoz va og'ir suvsizlanish bilan 127erment. Diabetik ketoatsidoz odatda 24 soat 127erment 127erment rivojlanadi va o'z vaqtida tashxis qo'yilmasa, bemorning hayotiga xavf tug'diradi. Diabetik ketoatsidozning oldini olish, erta aniqlash va samarali davolash hozirgi zamon diabetologiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xalqaro diabet assotsiatsiyalari tomonidan qabul qilingan yangi davolash standartlari ushbu holatni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — 127ermenta ketoatsidozni tashxislash va davolashda xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi klinik standartlarning afzalliklarini tahlil qilish, ularning klinik samaradorligini baholash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

Materiallar va usullar . Tadqiqotda 2022-yil AQSH va Buyuk Britaniya Diabet assotsiatsiyalari tomonidan tavsiya etilgan 127ermenta ketoatsidoz ni davolash standartlari tahlil qilindi. Ular 6 bosqichli davolash algoritmiga asoslangan bo'lib, har bir bosqichda suyuqlik terapiyasi, insulin qo'llanilishi, elektrolitlar muvozanatini tiklash, laborator nazorat va bemorni umumiy holatiga qarab yondashuv nazarda tutilgan. Mazkur usullar avvalgi yillardagi amaliyot natijalari bilan solishtirildi. Davolashdan 127erment bemor holati, asoratlari soni va o'lim ko'rsatkichlari bo'yicha 127ermentat ma'lumotlar jamlanib, tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. Yangi standartlar asosida davolangan bemorlarda 24 soat 127erment 127ermentat atsidoz va ketonemiya bartaraf etilishi kuzatildi. Davolash samaradorligi avvalgi usullarga nisbatan 25% ga oshgan. Ayniqsa o'smir yoshidagi bemorlarda miya shishi bilan asoratlanish holatlari 10% ga kamaygani aniqlandi. Bemorlarning hushiga kelish va mustaqil ovqatlana olish qobiliyati tiklanishi erta kuzatildi. Yangi yondashuvda qon glukozasining soatlik pasayish darajasi 3 mmol/l dan oshmasligi ta'minlanadi, bu esa gipoglikemiya xavfini kamaytirgan. Klinik

kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, monitoringga asoslangan individual yondashuv Diabetik ketoatsidoz bilan kasallangan bemorlarning tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Diabetik ketoatsidozni yangi standartlar asosida davolash klinik amaliyotda yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda. Erta tashxis, bosqichma-bosqich regidrotatsion, insulin terapiyasi va doimiy laborator monitoring bemor hayotini saqlab qolish imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, yangi standartlar asosida yondashuv asoratlarni kamaytirish va o‘lim holatlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ushbu algoritmlarni keng joriy qilish va sog‘liqni saqlash muassasalarida doimiy yangilab 128erment dolzarb ahamiyatga ega.

NEYROSIFILIS BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA LIKVOR HOLATI VA NEVROLOGIK SIMPTOMATIKANING O‘RGANILISHI

*Xolbo‘tayeva Aziza Baxtiyor qizi
Komiljonova Mohlaroy Qobil qizi*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi 5- kurs talabalari
Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrası
Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrası
assistenti Ashrapxodjayeva N. M.*

Kirish. Neyrosifilis – bu *Treponema pallidum* (bledo *treponema*) bakteriyasi sababli yuzaga keladigan surunkali infeksiyon kasallikning asab tizimi bilan bog‘liq og‘ir asoratidir. Bu kasallik kechki bosqichlarda markaziy nerv tizimini zararlab, bemor hayot sifatini 129ermen pasaytiradi va og‘ir nevrologik buzilishlarga olib keladi. Neyrosifilis klinik jihatdan turli shakllarda namoyon bo‘lishi, kech aniqlanishi va noaniq simptomlar bilan kechishi mumkinligi sababli, uning erta tashxislanishi dolzarb muammo hisoblanadi. Ayniqsa, likvor (orqa miya suyuqligi) tarkibidagi o‘zgarishlar va nevrologik simptomatikani tizimli tahlil qilish neyrosifilisni aniqlash va davolashda muhim 129ermentati mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi – neyrosifilis bilan kasallangan bemorlarda likvorning tsitologik, biokimyoviy va 129ermentat ko‘rsatkichlari hamda nevrologik simptomatikani chuqur o‘rganish orqali kasallikni erta aniqlash, klinik shakllarini tasniflash va samarali davolash yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot materiali va uslublari. Tadqiqot doirasida 17 nafar neyrosifilis bilan kasallangan bemorlar (12 nafar erkak va 5 nafar ayol) kuzatuvga olingan. Ularning 129erme 25 dan 50 yoshgacha bo‘lgan. Barcha bemorlar uchun tashxis qonning 129ermentat reaksiyalari, klinik belgilari hamda likvor tekshiruv asosida qo‘yildi. Serologik tekshiruvlar: KSR – klassik 129ermentat reaksiya, RIBT – bledo *treponemalarni immobilizatsiya qilish reaksiyasi*, RIF-200 va RIF-ABS – immunoflyuoresensiya reaksiyalari, Likvorda RIF-Ts – to‘liq likvor bilan olib boriladigan RIF reaksiyasi. Likvorologik tekshiruvlar: Likvor tsitologik, biokimyoviy va 129ermentat usullar orqali o‘rganilgan. Likvor holati Robustov G.V. klassifikatsiyasi bo‘yicha (Frishman M.P. tomonidan 1975 yilda takomillashtirilgan) baholangan. Klinik va nevrologik baholash: barcha bemorlar nevropatolog tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilgan, ularning subyektiv shikoyatlari va obyektiv nevrologik simptomatikasi batafsil qayd etilgan.

Tadqiqot natijalari. Likvor tahlili natijalari: sitoz (likvordagi hujayralar soni): 15

